

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI  
A.QODIRIY NOMLI JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI  
«MAKTABGACHA TA'LIM NAZARIYASI VA METODIKASI» kafedrasи**

«Himoya qilishga ruxsat beraman»  
Fakultet dekani

«\_\_\_\_» 200\_\_yil

**5141700 «Maktabgacha ta'lim va bolalar sporti» yo'nalishi bo'yicha  
bakalavr darajasini olish uchun**

**«TAYYORLOV GURUHI BOLALARINI MAKTAB TA'LIMIGA  
TAYYORLASHNING PEDAGOGIK ASOSLARI» mavzusida  
bajarilgan**

# **BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Bajaruvchi: M.B.Tursunmatova  
Ishni himoyaga tavsiya  
etaman ilmiy raxbar: kat.o'qit.G.Qo'shaqova**

**Maslahatchi: Prof.X.A.Meliyev**

BMI «Maktabgacha ta'lim nazariyasi va  
metodikasi» kafedrasining yig'ilishining qarori  
bilan (Qaror №\_\_\_\_\_ 2010 yil)  
himoyaga tavsiya etilgan.  
Kafedra mudiri v/b: \_\_\_\_\_ G.Qo'shaqova

**JIZZAX – 2010**

# MUNDARIJA:

<b>KIRISH.....</b>
<b>I-BOB.</b> Tayyorlov guruhi bolalarini maktab ta'limiga tayyorlashning ilmiy-pedagogik asoslari.....
<b>1.1</b> § Tayyorlov guruhi bolalarini maktab ta'limiga tayyorlashda sharq va g'arb allomalarining qarashlari.....
<b>1.2</b> § Maktabgacha ta'lim muassasalarining tayyorlov guruhi bolalarini maktab ta'limiga tayyorgarlik darajasini aniqlash.....
<b>1.3</b> § Maktab ta'limi tayyorgarligiga ta'sir etuvchi asosiy omillar.....
<b>II-BOB.</b> Tayyorlov guruhi bolalarini maktab ta'limiga tayyorlash mazmuni, shakl, metodlari.....
<b>2.1</b> § Bolalarni maktabga tayyorgarlik mazmuni.....
<b>2.2</b> § Tayyorlov guruhi bolalarini maktab ta'limiga tayyorlashning shakl, metodlari.....
<b>2.3</b> § Tayyorlov guruhi bolalarini maktab ta'limiga tayyorlashda psixologik-pedagogik tashhis dasturi va uni tashkil qilish.....
<b>2.4</b> § Tajriba-sinov natijalari.....
Xulosa.....
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.....
Ilova.....

## **Kirish.**

**Mavzuning dolzarbliji.** O’zbekiston respublikasining mustaqilligi sharoitida demokratik huquqiy jamiyatni barpo etish yo’lida amalga oshirilayotgan ijtimoiy harakat mustaqil fikrlash layoqatiga ega, aqliy, ma’naviy, axloqiy va jismoniy jihatdan etuk barkamol avlodni tarbiyalash zaruratini kun tartibiga olib chiqdi.Zero sog’lom avlod va uning ijtimoiy faolligi milliy umuminsoniy qadriyatlar ustvorligi ta’minlangan huquqiy jamiyatni barpo etish imkoniyatini beradi.O’zbekiston Respublikasi “Ta’lim to’g’risida”gi qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi hamda Sog’lom avlod dasturi mazmunida o’z aksini topgan g’oyalar insonni intelektual ma’naviy axloqiy jihatdan tarbiyalash, bo’lajak tarbiyachilardan bolalarni maktab ta’limiga tayyorgarligini rivojlantiruvchi eng maqbul yo’l ekanligini ifoda etadi.O’sib kelayotgan yosh avlodni maktab ta’limiga tayyorlashning takomillashtirilgan yo’llari va usullarini ishlab chiqish, bolalarni maktab ta’limiga tayyorgarliklari standartlarini ishlab chiqish, bolalarni maktab ta’limiga tayyorgarliklarining turli darajalarini aniqlash pedagogika nazariyasi va amaliyotida keng ko’lamda tatbiq etilishi lozim bo’lgan muhim muammolardandir.Jamiyatimizda yoshlarga ta’lim-tarbiya berish o’sib kelayotgan yoshlarni ma’nan yetuk qilib tarbiyalash, barcha davrlarda bo’lgani kabi bugungi kunda ham davlatimiz oldida turgan muhim masalalardan biri hisoblanadi.Bu xususida Prezidentimiz I.A.Karimovning “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch” asarida “...inson o’z umri davomida oladigan informatsiyaning 70% 5 yoshgacha bo’lgan davrda olar ekan..” deya ta’kidlab yoshlarga ta’lim berish tizimini uning samarali shakl va metodlarini ishlab chiqish eng dolzarb muammo ekanligini qayd etgan holda 2010- yilni “Barkamol avlod” yili deb e’lon qildilar. Maktabgacha ta’lim bolaning sog’lom, har tomonlama kamol topib shakllanishini ta’minlaydi, unda o’qishga intilish hissini uyg’otadi, uni muntazam ta’lim olishga tayyorlaydi.

Maktabgacha ta'lim bola olti-yetti yoshga yetgunicha davlat va nodavlat maktabgacha tarbiya bolalar muassasalarida hamda oilalarda amalga oshiriladi. Maktabgacha ta'lim maqsadi va vazifalarini ro'yobga chiqarishda mahallalar, jamoat va hayriya tashkilotlari, xalqaro fondlar faol ishtirok etadi. Hozirgi kunda bolalarning maktabga tayyorgarlik darajalariga qo'yilayotgan jiddiy talablar bu borada zaruriy nazariy, amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqishni taqazo etmoqda.

Maktabgacha tarbiyani rivojlantirish uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim bo'ladi:

- malakali tarbiyachi va pedagog kadrlarni ustuvor ravishda tayyorlash;
- maktabgacha ta'limning samarali psixologik-pedagogik uslublarini izlash va joriy etish;
- bolalarni oilada tarbiyalashni tashkiliy, psixologik, pedagogik va uslubiy jihatdan ta'minlash;
- zamonaviy o'quv-uslubiy qo'llanmalar, texnik vositalar, o'yinchoqlar va o'yinlar yaratish hamda ularni ishlab chiqarish;
- maktabgacha yoshdagi bolalarni xalqning boy madaniy-tarixiy merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash uchun shart-sharoitlar yaratish;
- maktabgacha tarbiya muassasalarining har xil turlari uchun turli variantlardagi dasturlarni tanlab olish, maktabgacha tarbiyaning barcha masalalari bo'yicha malakali konsultatsiya xizmati ko'rsatish imkoniyatini yaratish;
- maktabgacha tarbiya va sog'lomlashtirish muassasalari tarmog'ini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish mexanizmini ishlab chiqish.

**Tatqiqot muammosining o'r ganilganlik darjasи.** "Ta'lim to'grisida" gi qonunning 11-moddasi Maktabgacha ta'lim xalq ta'limi tizimining birinchi bosqichi ekanligi, uning asosiy vazifasi bolalarni sog'lom va yetuk qilib

tarbiyalash, ularni maktab ta’limiga pedagogik va psixologik tayyorlashdan, ularni shaxsiy qobilyatlarini rivojlantirishdan iborat deb ta’kidlanadi. Bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash xususida juda ko’plab nazariy va amaliy izlanishlar amalga oshirilganligini kuzatishimiz mumkin.

**Tatqiqot maqsadi-** Tayyorlov guruhi bolalarini maktab ta’limiga tayyorlashning ilmiy- pedagogik asoslari tizimini yaratish.

**Tatqiqot vazifalari:** Bolalarni maktabga tayyorlashda maktabgacha ta’lim muassasalarining ahamiyatini asoslab berish.

- Mavzuga oid ilmiy, pedagogik, manbalarni o’rganish, tahlil qilish va umumlashtirish, pedagogik tizim va uning samaradorligini tajribada sinab ko’rish.
- Bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash bo’yicha samarali shakl, metod va vositalarini aniqlash, ularni amaliy tajriba-sinovidan o’tkazish;
- Bolalarni maktab ta’limiga tayyorlashda maktabgacha ta’lim muassasalarining tayyorlov guruhlarida olib boriladigan ta’lim-tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning samarali usullarini ishlab chiqish.
- Bolalarni maktab ta’limiga tayyorlashda maktabgacha ta’lim muassasalarining ish shakllari va mazmunining ahamiyatini asoslab berish.
- Bolalarni maktab ta’limiga tayyorlashda tarixiy shakllanish jarayonlarining tadrijiy rivojini aniqlash va tahlil qilish;
- Maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash vositalaridan foydalanish uchun uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish va ularni amaliy tajriba sinovidan o’tkazish.

**Tatqiqot ob’ekti:** Maktabgacha ta’lim muassasalarining tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilari.

**Tatqiqot predmeti** - Tayyorlov guruhi bolalarini maktab ta’limiga tayyorlashning samarali shakl, metod va vositalari.

**Tatqiqotning metodologik asosi.** O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, “Ta’lim to’g’risida”gi qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi hamda Sog’lom avlod dasturi, O’zbekiston Respublikasi va Xalq ta’limi vazirligining mактабгача yoshidagi bolalarni maktab ta’limiga tayyorlashga oid me’yoriy hujjatlar Sharq va G’arb mutafakkirlarining bola tarbiyasiga oid qarashlari, “Uchunchi ming yillikning bolasi davlat” Davlat dasturi, Qur’oni Karim Hadis Sharifda bola ta’lim-tarbiyasiga oid qarashlari, pedagogika-psixologiya fanlarida olib borilgan tatqiqot ishlar natijalari hamda inovatsion pedagogik faoliyat tajriba ishlariga tayanadi.

### **Tatqiqot metodlari:**

- Mazuga oid ilmiy pedagogik manbalarni o’rganish tahlil qilish va umumlashtirish;
- psixologik- pedagogik kuzatish;
- so’rovnama,
- intervyu,
- pedagogik ekspremint;
- yakuniy sinov o’tkazish zamirida tajtiba natijalarini matematik-statistik tahlil etish;
- ilmiy tatqiqot ishlari natijasini umumlashtirish.

### **Tatqiqotning ilmiy yangiligi:**

- Tayyorlov guruhi bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash maqsadida “Bolalarni mактабга тayyorlash ” dasturi yaratildi;
- Tayyorlov guruhi bolalarni maktab ta’limiga tayyorlashning samarali shakl, metod va vositalari ishlab chiqildi;
- Tayyorlov guruhi bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash dolzarb pedagogik muammo ekanligi asoslandi;

- Tayyorlov guruhi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashning pedagogik-psixologik tushuncha mazmun mohiyati talqin etildi.

### **Tatqiqot natijalarining nazariy ahamiyati:**

Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash bo'yicha mavjud pedagogik asoslar o'rganilib, muammoning evalutsion rivojlanish bosqichlari o'rganilganligi, tayyorlov guruhi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashning pedagogik asoslari yuzasidan metod, shakl hamda vositalarning ishlab chiqilganligi bilan belgilandi.

### **Tatqiqot natijalarining amaliy ahamiyati:**

Tatqiqot natijasida ishlab chiqilgan ilmiy-pedagogik va metodik tavsiya bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash pedagogik-psixologik asoslarini samarali yo'lga qo'yishda bolalarga ushbu mazmunda ilmiy-nazariy hamda metodik adabiyotlar, qo'llanmalar yaratish va takomillashtirishga hamda bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash yuzasidan izlanishlar olib borilayotgan tarbiyachilar faoliyatiga ilmiy-metodik jihatdan yordam beradi.

### **Tatqiqotning ilmiy farazi.**

- Agar, mavzuga oid ilmiy, pedagogik, manbalarni o'rganish, tahlil qilish va umumlashtirish, pedagogik tizim va uning samaradorligi tajribada sinab ko'rilsa;
- Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda maktabgacha ta'lim muassasalarining tayyorlov guruhlarida olib boriladigan ta'lim-tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning samarali usullari ishlab chiqilsa.
- Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda maktabgacha ta'lim muassasalarining ish shakllari va mazmunining ahamiyati asoslab berilsa;
- Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash vositalaridan foydalanish uchun uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilsa

samarali natijalarga erishilgan bo'lar edik.

**Tatqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi**. Tatqiqot ishining mazmuni ilmiy-amaliyot konferensiya maqolalarida o'z aksini topgan.

Tatqiqot ishi 3 bosqichda amalga oshirilib har bir bosqichda olib borilgan tajriba-sinov ishlaridan qator tatqiqot metodlaridan foydalanildi.

Dastlabki bosqichda maktabgacha ta'lim muassasalarida pedagogik kuzatuv respondent-tarbiyalanuvchilar tarbiyachilar va ota-onalar ishtirokida suhbatlar tashkil etildi. Og'zaki va yozma shaklda savol-javob, suhbat uyushtirildi hamda tayyorlov guruhi bolalarida maktab ta'limiga tayyorgarlik mazmuni darajasini aniqlashga qaratilgan so'rovnomalari o'tkazildi.

Shu asosda tatqiqot maqsadi, obe'kti, predmeti, vazifalari hamda ilmiy farazlar belgilandi.

Ikkinci bosqich aniqlovchi tajriba-sinov ishlari amalga oshirildi. Tayyorlov guruhi bolalarini maktab ta'limiga tayyorlashning mazmunini yoritib, ishlab chiqarish maxsus metodika asosida keng ko'lamda shakllanishi natijasida tajriba-sinov ishlari tashkil etildi. Maktab ta'limiga tayyorlash borasidagi amaliy harakatlarimiz dastlab maktabgacha ta'lim muassasalari oilada tashkil topgan guruhlarda anketa so'rovnoma o'tkazish orqali ularni mazkur jarayonga tayyorlashdan boshlandi. Zero, ushbu muammo o'z yechimini qidiraveradi.

Uchinchi bosqich. Maktabgacha yoshdagি bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash maqsadida tajriba-sinov ishlari natijalari umumlashtirib olingan natijalar matematik-statistik metodlari yordamida ishaonchlilik darajalari aniqlandi hamda samaradorligi isbot, shuningdek tarbiyalanuvchilardan maktab ta'limiga tayyorlash jarayonini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tajriba-sinov bazasi maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyalanuvchilari.

**Pedagogik omil.** Mamlakatimizda bolalarni maktabga tayyorlash yuzasidan say-harakatlar qilinayotganiga qaramasdan, muammo doirasida yaratilgan manbalar mazmunini tahlil qilish, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashning pedagogik asoslarini shakllantirish yaxlit bir butun holda o'rganilmaganligi bois, muammoning ijobiy yechimiga xizmat qiladigan uning maqbul pedagogik shart-sharoitlari mazmuni, konsepsiysi modeli, mezonlari, shakl , metodlarini ishlab chiqishni taqazo etadi.

Yuqorida qayd etilgan omillar “Tayyorlov guruhi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashning pedagogik asoslari” nomli mavzuning tanlanishiga asos bo'lib xizmat qiladi.

**Ijtimoiy-siyosiy omil.** Tarixiy-xronologik manbalarni o'rganish natijasida shunday shunday to'xtamga kelish mumkin.Inson mavjud ekan,ta'lim-tarbiya jarayoni to'xtovsiz ularga ta'sir ko'rsatib turadi.Insonlarga ta'lim-tarbiya berish dolzarb ijtimoiy masalalardan biri sifatida e'tirof etilib, mazkur muammoga o'sha davr ehtiyojiga ko'ra o'ziga xos tarzida yondashilgan .

**Tatqiqot tuzilishi va hajmi:** Kirish, ikki bob, umumiy xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati hamda ilova materiallaridan iborat.

**I-BOB. TAYYORLOV GURUHI BOLALARINI MAKTAB  
TA'LIMIGA TAYYORLASHNING ILMIY-PEDAGOGIK  
ASOSLARI.**

**1.1§ Tayyorlov guruhi bolalarini maktab ta'limiga tayyorlashda Sharq  
va G'arb allomalarining qarashlari.**

Insonni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash, xalqimizning azaliy orzusi bo'lib, ajdodlarimiz ma'rifat, ma'naviyat va madaniyatni qanday qilib yosh avlodga o'rgatish, ularni komillikka yetaklash yo'llari, qonun qoidalarini muttasil izlaganlar.Chunki insonning ma'rifatli va ma'naviy komillikka erishishi pedagogika fanining yetakchiligidagi amalga oshiriladi.

Abdulla Avloniy tarbiyaga alohida e'tibor berib: «Tarbiya yo hayot yo momot yo najot yo halokat yo saodat yo falokar masalasidir»<sup>1</sup>- degan edi.

Bola tarbiyasi xususida sharq va g'arb olimlari, allomalari o'zlarining fikrlari qarashlarini bayon etib ketishgan.1934-yilda takomillashtirilgan “Tarbiyalash programmasi” nashr etildi.Unda bolalar bog'chasida bolalarning ko'p qirrali hayotini tashkil etish va uning mazmuni masalalariga katta e'tibor berildi. Qur'oni Karim va Hadislarda ham ta'lim-tarbiya jarayoniga alohida to'htalib o'tilgan.

Ilm-ulug' hikmat, ilm-iymon, e'tiqod.Demak, din asosini ham ta'lim ilm tashkil etadi.Beshikdan qabrgacha ilm izla kabi ibratli so'zlar ham hayotiy tajriba asosida yuzaga kelgan deb ayta olamiz.

Islom dini, shariat va fiqhiy masalalarning ishlanishida dunyo tan olgan olimlardan Imom al-Buxoriy, Abu Mansur al-Moturudiy, Burhoniddin Marg`inoniy, Imom at-Termiziy, Kaffol ash-Shoshiy, az-Zamaxshariy, Abu Bakr al-Xorazmiy, Yusuf Hamadoniy, sof diniyyo'nalishda ta'lim-tarbiya tizimini olib borishgan Madrasalaarda ta'lim-tarbiya olib borilgan. Al-Farobi, Ibn Sino, al-

Beruniy, Abu Abdulloh al Xorazmiy, Yusuf Xos Xojib, Ismoyil Juzjoniy, Ahmad Yassaviy, Al-Farobiy kabilar ma'naviy va axloqiy qarashlar doirasida ta'lim-tarbiya asoslarini ilmiy ishlab chiqqanlar. Farobiy birinchi bo'lib ta'lim-tarbiyaga ta'rif bergan. Ta'lim - so'z va o'rganish bilan amalga oshiriladi. Tarbiya-amaliyot, ish tajriba bilan ya'ni shu yo'l orqali amalga oshiriladi. Har kimki ilm hikmatini desa, uni byoshligidan boshlasin va ahli ilmdan mol dunyosini ayamasin.

Beruniy inson kamolotida ilmiy bilimlarni egallash usullari yo'llari haqidagi fikrlari hozirgi davr uchun ham dolzarbdir. O'quvchiga bilim berishda u:

- o'quvchini zeriktirmaslik;
- bilim berishda bir xil narsa yoki bir xil fanni o'rgatavermaslik;
- uzviylik, izchillik;
- yangi mavzularni qiziqarli asosan, ko'rgazmali bayon qilishga e'tibor berish kerakligini uqtiradi.

Beruniyning komil insonni shakllantirishga oid bu fikrlari o'z zamonasi uchun emas, hozirgi davr ta'lim-tarbiyasini rivojlantirishda ham muhim ahamiyatga egadir.

Ibn Sino bilim olishda bolalarni jamoa bo'lib mакtabda o'qitish zarurligini ko'rsatadi va ta'limda quyidagilarga rioya qilish zarurligini ta'kidlaydi.

- ✓ Bolaga bilim berishda birdaniga kitobga band qilmaslik;
- ✓ Ta'limda yengildan og'irga borish orqali bilim berish;
- ✓ Mashqlar bolalar yoshiga mos bo'lishi;
- ✓ Bilim berishda bolalarning mayl, qiziqishi va qobiliyatini hisobga olish;
- ✓ O'qitishni jismoniy mashqlar bilan qo'shib olib borishni ta'kidlaydi.

Ibn Sino bola ta'lim-tarbiyasi bilan avvalo ota-onada shug'llanishi kerak deydi.

Amir Temur va Temuriylar davrida ta'lim-tarbiya masalalari davlat va hokimiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri deb baholangan. Amir Temur, Ulug'bek, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Jaloliddin Davoniy, Sakkokiylar, Lutfiy, Sharafiddin Ali Yazdiy, Mirxon, Xondamir, Zahiriddin Muhammad Bobir kabilarning ilm-ma'rifikatni rivojlantirishga qo'shgan xissasi e'tiborga loyiqdir. Shu bois, mazkur madaniy va ma'rifiy taraqqiyot davri ta'li-tarbiya taraqqiyotining ikkinchi bosqich hisoblanadi.

Tasavvuf tariqatlari va ularda bag'rikenglik, insonga mehrli munosabat qoidalari inson komilligi va tariqatlar tizimidagi tarbiya jarayonining muhim omillaridan deb belgilangan. Naqshbandiya, qubraviya, yassaviya, mavlaviya, cheshtiya va suxravardiya tariqatlari doirasida ta'lim-tarbiya g'oyalari tarannum etilgan.

Mahdumi A'zam, Muhammad Shaybonixon, Abulg`oziyxon, Turdi Farg`oniy, So`fi Olloyor, Maxtumquli, Maxmur, Gulxaniy, Munis Xorazmiy, Ogahiy, Komil Xorazmiy, Ahmad Donish kabilarning bag'rikenglik va dunyoviy tafakkur rivojidagi o'rni ular qarashlaridagi gumanistik g'oyalar tizimi bilan belgilanadi. Ma'rifatparvarlik yo'nalishidagi ishlangan bag'rikenglik qarashlari O'rta Osiyodagi islom madaniyati tarkibidagi to`rtinchi bosqich mazmunini belgilab beradi.

Turkiston madaniy hayotida insonsevarlik g'oyalarning rivojlantirilishi ta'lim-tarbiya bilan uzviy bog`langan holda targ`ib qidingan. Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Rizouddin ibn Fahruddin, Avaz O'tar, Fitrat, Sadriddin Ayniy, X.X. Niyoziy, Abdulla qodiriy kabilar ijodida ilgari surilgan ta'lim-tarbiyaga oid qarashlari o'z zamonasining eng

ilg`or g`oyalari tizimidan mustahkam o`rin olgan edi. Bu davr ta'lim-tarbiya ziyyosining ilmiy-nazariy ishlanishida beshinchi bosqich hisoblanadi.

Qadimgi Yunoniston madaniyat maktabi va dastlabki pedagogik fikrlar G`arb olimlarininig qarashlarida xususan, Qadimgi Yunoniston va Gretsiyada madaniyat maktabi va dastlabki pedagogik fikrlar boshqa mamlakatlarga nisbatan juda erta rivojlandi.Gretsiyada bolalar 7 yoshga yetguncha uyda tarbiyalanar edilar.Platonning fikricha bolalar 3 yoshdan boshlab 6 yoshgacha davlat tomonidan taayinlab qo'yilgan tarbiyachilaar rahbarligida maydonchalarda turli o'yinlar bilan shug'llanadilar.Afinada jismoniy, ma'naviy jihatdan etuk kishini u yerda eng ko'rakm va barkamol inson hisoblashgan.Platon o'yinlarni maktabgacha tarbita vositasi deb hisoblab, ularga katta ahamiyat berdi, shuningdek, bolalarga hikoya qilib beriladigan materiallarni sinchiklab,tanlash kerakligini aytadi.

Ya.A.Komenskiy ham O'zining "Buyuk didaktika" hamda "Onalar maktabi" asari orqali maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga ta'lim-tarbiya berish asoslarini bolalar yosh xususiyatlarini tabiiylik prinispiga amal qilib davrlarga bo'lgan. "Onalar maktabi" asarida maktabgacha tarbiyaning mukammal tizimini ishlab chiqish, hamma bolalarga aniq bilimlar berishni talab etadi deb ta'kidlaydi.

K.D.Ushinskiy u bolalarning ilk yoshlik chog'idan boshlab xalq madaniyati bilimlarini o'zlashtirilishini ona tilini egallab olishini, xalq og'zaki ijodi asarlari bilan tanishishni talab qilar edi.U o'zining "Boshlang'ich ta'lim usullari" asarini yozdi.Unda ta'limning bolalar kuchiga mosligi va izchilligi hamda ta'limning ko'rsatmaliligi, ongliligi va puxta o'zlashtirilishiga e'tiborini qaratadi. Har bir davrda ta'lim berish jarayonlari rivojlanib yuksalib boraveradi.

## **1.2§ Maktabgacha ta’lim muassasalarining tayyorlov guruhi bolalarini maktab ta’limiga tayyorgarlik darajasini aniqlash.**

Ushbu muammoning yechimini topishda maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni maktab ta’limiga tayyorlashda quyidagi ob’ektiv va sub’ektiv shart-sharoitlarning yaratilishi muhim ahamiyatga ega.

**A) Sub’ektiv shart-sharoitlar.** Bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash davlat siyosati darajasiga ko’tarilganligi

- bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash bo’yicha ota-onas, pedagog hamda maktabgacha ta’lim muassasa hodimlarining bu borada muayyan bilimga ega ekanligi;
- Bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash qiziqarli va ichki intilishning mavjududligi;

### **B) Ob’ektiv shart-sharoitlar.**

- Bolalarni maktab ta’limiga tayyorlashga oid mavzularda yaratilgan manbalar ilmiy, ilmiy – ommabop, metodik adabiyotlar, darslik, qo’llanma hamda ko’rgazmali qurollarning mavjudligi;
- Ta’lim jarayonining axborot va texnik vositalar bilan yetarli darajada ta’minlanganligi va hakazolar.

Metodlar og’zaki metod uning mazmunini ifodalovchi quyidagida o’z aksini topadi. Ma’ruza, semenar, konferensiya.

Ko’rgazmali metod mazmunini ifodalovchi shakllarni bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash bo’yicha bukled, elektron darslik, plakat va boshqa didaktik materiallar to’plami, vedio syujet, (bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash bo’yicha) va hakoza. Yuqoridagi manbalarni o’rganish natijasida mazkur band yuzasidan quyidagi xulosaga kelish mumkin.

**1.** So'nggi yillarda “Bolalarni maktabga tayyorlash” metodikasi muammo sifatida o'rgangan va bu borada bir qator konsepsiyalarga asoslangan.

**2.** Tayyorlov guruhi bolalarini maktab ta'limiga tayyorlashning pedagogik asoslari mavzusida yartilgan manbalardan muammoning u yoki bu jihatni alohida-alohida tatbiq etilgan. Shu bois, bu masalani yaxlit bir butun hamda har tomonlama yondashuv asosida tatbiq etish dolzarb va pedagogik muammo sifatida izlanishlar olib borish ehtiyojini yuzaga keltirmoqda.

**3.** Chiqarilgan nazariy xulosalarga asoslangan holda tatqiqotchilik faoliyatini yo'lga qo'yishda dastlabki pedagogik va psixologik jihatdan “Maktab ta'limiga tayyorlash” tushunchalariga sharh berishda boshlash lozim degan to'xtamga keldik. Zero bu tarzdagi harakat tatqiqotning umumiy mohiyati to'g'risida aniq tasavvurning hosil bo'lishiga zamin yaratdi. Dessertatsiya ishining 1.2 bandida ana shu xususida so'z yuritilgan.

Bolarni maktab ta'limiga o'qitishning samaradorligi ko'p jihatdan ularning tayyorgarlik darajalariga bog'liq bo'ladi. Maktab ta'limiga tayyorgarlik-maktabgacha ta'lim muassasalari va oilada maktabgacha ta'lim yoshidagi bolaga berilgan ta'lim va tarbiyaning muhim yakunidir. Bolaning maktab ta'limiga tayyorgarlik darjasini maktab bolaga qo'yadigan talablar majmui orqali aniqlanadi. Bu talablarning o'ziga xos tomoni o'quvchining yangi sotsial-psixologik o'rni, u bajarishga tayyorlangan bo'lishi lozim bo'lган yangi vazifa va burchlardan kelib chiqadi.

Maktabga kirish bola hayotidagi odatiy turmush tarzi atrofdagilar bilan munosabat sistemasining o'zgarishiga aloqador muhim davrdir. Bola hayotida birinchi bor markaziy o'rinni ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan o'quv faoliyatini egallaydi. Unga odatiy bo'lgan erkin o'yin faoliyatidan farqli o'laroq endi ta'lim majburiy bo'ladi va birinchi sinf o'quvchisidan to'rtta jiddiy munosabat talab

etiladi.Ta'lism faoliyatining yetakchi turi sifatida bolaning kundalik hayot jarayonini qayta quradi.

Har qanday pedagog hech qanday vositalardan foydalanmay, bolani maktabga tayyorgarligini aniqlay oladi. Ba'zi ota-onalar ham bola qanchalik sog'lom, chaqqon, mustaqil, aqli, o'qishga tayyor ekanligini taxminan bilishadi.

Bog'cha tarbiyachilar har bir bolaning maktabga tayyorgarligini to'g'ri aniqlashda yetarli pedagogik, texnologik bilim va tajribalarga ega bo'lishlari kerak, bunda ular MTMda ta'lism va tarbiya dasturi talablariga tayanishlari kerak. Agar maktabgacha davrda bola normal rivojlangan bo'lsa, uning jismoniy va aqliy rivojlanishiga hech qanday kuchli ta'sirlar bo'limgan bo'lsa, unda bola yetti yoshda ta'lism olish darajasiga yetadi.

Ammo ba'zi oilalar va bog'chada maktabga tayyor bo'limgan bolalar ham uchraydi. Bunday bolalar mutaxassis nazoratida maxsus tekshiruvdan o'tishadi va o'qishga tayyorgarligi darjasini haqida mutaxassis xulosa chiqaradi. Bolaning o'yinqaroqligi, mustaqil bo'la olmasligi, his-tuyg'u va ijtimoiy rivojlanishining juda past darajaliligi uning maktabga tayyor bo'lishiga to'siq bo'ladi. Bunday bolalar o'rtoqlari va tengdoshlari orasida o'z o'rnini topa olmaydilar.

Ular kundalik faoliyatlarida yordamga muhtoj: berilgan va-zifalarni tushuna olmaydilar va mustaqil bajara olmaydilar, qo'llarining mayda harakatlari yaxshi rivojlanmagan. Lug'at boyligi, o'z fikrlarini ifodalashi chegaralangan, xotirasi sust, umumlash-tirishni bajara olmaydi va hokazo.

Bularga nafaqat bolaning yomon ijtimoiy ahvoli sabab bo'ladi, balki nasliy omillar, jiddiy va murakkab kasalliklari, yengil tug'ma jarohatlari, nevrozlar keltirib chiqaradigan sharoitlar ham sabab bo'ladi. Bola o'qishni butun mamlakat oldida javobgar bo'lgan o'z burchi, kishilarning mehnat hayotidagi ishtiroki tarzida

anglay boshlaydi.Bola o'quvchi bo'lgandan so'ng,maktabgacha ta'lim yoshidagiga nisbatan sifat jihatdan yangi o'rin egallaydi.

Ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyati maktab ta'lim tizimini doimo takomillashtirib borishidir. Maktab ta'limiga 1-sinfga keluvchi o'quvchidan qandaydir maxsus bilim va ko'nikmalarni emas, balki nilgarigi yillarga nisbatan aqliy faoliyatning murakkabroq shakllarini, axloqiy irodaviy sifatlarinng yuksakroq rivojlangan darajasini o'z xatti-harakatini boshqarish qobilyatini katta ishonchlilik qobilyatini talab qiladi.Maktabgacha ta'lim muassasasining vazifasi ta'lim – tarbiyaviy ishining butun sistemasi bilan bolalardan maktab ta'limi talablariga to'liqroq muofiq keluvchi mактабда o'qishga tayyorgarlikni tarkib toptirishdir.

Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash, birinchidan, maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyaviy ishni maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni umumiylar har tomonlama rivojlanishining yuqori darajasini ta'minlaydigan, ikkinchidan, bolalarni maktabning boshlang'ich sinflardan o'rganishlari lozim bo'lgan o'quv fanlarini egallahsga, maxsus tayyorlashni ta'minlaydigan qilib tashkil etilishini nazarda tutadi.Shunga ko'ra psixologik-pedagogik adabiyotlarda tayyorgarlik tushunchasi bola shaxsini rivojlanish sifatida aniqladi va ikkita o'zaro bog'langan jihatlardan maktabga, o'qishga, umumiylar psixologik tayyorgarlik va "maxsus tayyorgarlik" tarzida ko'rib chiqiladi.

Maktabga umumiylar tayyorgarlik bolalar bog'chasining maktabgacha yoshdagagi bolalarni har tomonlama tarbiyalashga oid davomli maqsadga muofiq ta'lim-tarbiyaviy ishning muhim yakuni sifatida namoyon bo'ladi.

Maktabga tayyorgarlik bolaning maktabga borish vaqtiga kelib aqliy, ma'naviy, irodaviy, estetik va jismoniy rivojlanishda erishgan shunday darajasidaki, u bolaning maktab ta'limining yangi sharoitiga va o'quv materialini

yaratadi. Umumiy tayyorgarlik tushunchasi maktab ta'limi nuqtai nazaridan 1-sinfga borayotgan bola psixik rivojlanishidagi muhim sifat ko'rsatkichlarni muovfaqiyatli jamlaydi. Maktab ta'limiga psixologik tayyorgarlik bolaning o'qishga intilishi, o'quvchi bo'lish ishtiyoqidan bilish faoliyati va tafakkur operatsiyalarining yetarlicha yuqori darjasini bolaning o'quv faoliyati elemintlarini egallashi, iroda va ijtimoiy rivojlanishning muayyan darajasida namoyon bo'luvchi asoslangan tayyorgarlikni o'z ichiga oladi. Bolaning maktabga psixologik tayyorgarligining barcha majmua bolani sinf jamoasiga olib kirish, maktabda o'quv materialini ongli faol egallah, keng doiradagi maktabga oid majburiyatlarni bajarishni qamrab oladi.

Bolaning maktabga maxsus ravishda tayyorligi maktabda o'qishga umumiy psixologik tayyorgarligiga qo'shimchadir. U bolada matematika va ona atili kabi o'quv fanlarini o'rghanish uchun zarur bo'lган maxsus bilim, ko'nikma va malakalarning mavjudligiga ko'ra aniqlanadi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarda eng oddiy matematik tasavvurlarni tarkib toptirish, nutqni o'stirish hamda savodni egallahga tayyorlash yuzasidan o'tadigan jadal ish bolalarni maktabda o'qishga maxsus tayyorlashning zarur darajasini ta'minlaydi.

Maktabga qatnaydigan bola yangi turmush tarziga kishilar bilan o'zaro munosabatning yangi tizimiga faol aqliy faoliyatga tayyorlangan bo'lishi darkor. U yangi jiddiy majburiyatlarni uddalashi uchun jismoniy rivojlanishda muayyan darajaga erishgan bo'lishi kerak.

Bolaning maktabda o'qishga umumiy tayyorgarligi mazmunida bir necha o'zaro bog'langan jihatlar mavjud bo'lib, ulardan muhimlari ma'naviy, aqliy, jismoniy tayyorgarlikdir.

Maktabda o'qishga axloqiy, irodaviy tayorgarlik bolaning mактабга болалик oxiriga kelib axloqiy xatti-harakat iroda axloqiy hissiyotlar va ong rivojida unga yangi ijtimoiy nuqtai-nazarni faol egallashga hamda o'zining o'qituvchi, sinfdoshlar bilan o'zaro munosabatlarini axloqiy asosda qurishiga imkon beradigan darajaga erishishida ifodalanadi.

Maktabni, axloqiy-irodaviy tayyorgarlik mазмунини о'звучи tutgan o'rnidan kelib chiquvchi bola shaxsi hamda xilqiga qo'yiladigan talablarga ko'ra aniqlanadi.Bu talablar maktabda o'qishning dastlabki kunlaridanoq o'quvchi oldiga o'quv majburiyatlarini mustaqil va ma'suliyatni his etgan holda bajarish tartibli va ehtiyyotkorlik bilan munosabatda bo'lishini talab etadi.Bu yuksak talablarni bajarishga tayyorlash oldindan maktabgacha ta'lim muassasalarida va oilada maktyabgacha yoshdagi bolalar bilan olib boriladigan davomli, maqsadga yo'naltirilgan tarbiyaviy ish jarayonida amalga oshiriladi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bola shaxsiy hulq-atvori rivojining muayyan darajasida namoyon bo'ladi.Bu munosabatda bolaning maktabgacha tarbiya yoshi davomida rivojlanadigan o'z xulq-atvorini boshqarish qobiliyati qoidani yoki tarbiyachi talablarini ongli bajarish asabiylashib ketishga erk bermaslik, qo'yilgan maqsadga erishishda qat'iyatni namoyon qilish, kerakli ishni o'ziga tortadigan, ammo maqsaddan chalg'itadiganiga qarshi o'laroq oxirigacha bajarish ko'nikmasi va shu e'tiborga loyiqdir.Bo'lajak o'quvchi xulq-atvoridagi ixtiyorilikni rivojlanish asosini maktabgacha tarbiya yoshi oxiriga kelib tarkib topadigan sabablar, o'zaro bo'ysinuvchilari tashkil qiladi.Sabablarning o'zaro bo'ysinganligi katta maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning ushbu daqiqadagi o'z ishtiyoqlarini ma'naviy ahamiyatli maqsadlar yo'lida yengish uchun irodaviy, ongli intilishlariga aloqadordir.

Tabiiyki, maktabgacha tarbiya yoshida bolaning xulq-atvori ixtiyoriylikning yuqori darajasi bilan ajralib turmaydi, ammo bu davrda maktabdagagi yangi xulq-atvori turiga o'tishni ta'minlaydigan ixtiyoriy xulq-atvor mexanizmining tarkib topishi muhimdir.

Maktabgacha axloqiy-irodaviy tayyorgarlikning qaror topishida, shuningdek, tayyorlov guruhidagi bola shaxsiy xulq-atvoridagi mustaqillik, uyushganlik va intizomlilik kabi xususiyatlar ahamiyatlidir.

Tayyorlov guruhidagi bolada mustaqillikni muovfaqiyatli shakllanishining dalolati tarbiyachining eslatish va ko'magisiz xulq-atvor qoidalarini bajarish, yangi sharoitlarda harakatning to'g'ri odatiy usullaridan foydalanish yordam berishga tayyorlik qobiliyatidir.Mustaqillik bilan uzviy bog'langan xulq-atvordagi uyushganlik va intizomlilik bola xulq- atvoridagi maqsadga yo'llanganlikda o'z faoliyatini maktabgacha ta'lim muassasalarida qabul qilingan qoidalarga muofiq ongli tashkil eta bilishda faoliyat natijasiga erisha bilish va uni nazorat qilish, o'z xulq-atvorini boshqa bolalarniki bilan muvofiqlashtirish o'z xatti-harakatlari uchun shaxsiy ma'suliyatni his qilishda o'z ifodasini topadi.Tayyorlov guruhi bolalar xulq-atvoridagi mazkur xususiyatlarning mavjudligi maktabga axloqiy-irodaviy tayyorlikni shakllantirishning isboti xizmatini o'taydi.

Maktabga axloqiy-irodaviy tayyorlikning boshqa muhim tarkibiy qismi bolaning katta yoshlilar va tengqurlari bilan o'zaro munosabatlarini qoidalarga muofiq tashkil eta bilishdir.Tajribaning ko'rsatishicha, maktabdagagi o'qish sharoitlariga moslashish oldingi yillarda bolalarda "jamoachilik" sifatlari:do'tlarga nisbatan xayrixoh, xushmuomilalik, g'amxo'rlik bildirish, o'zaro yordamga hozirlikning qanchalik muvoffaqiyatli shakllantirilganligiga bevosita bog'liqligini ko'rsatdi.Bola xulq-atvorida jamoatchilik xislatlarini bunday majmuuning mavjudligi uni maktabga, axloqiy, irodaviy tayyorligining ko'rsatkichi bo'la oladi

va yangi jamoada tengqurlari bilanmuomilada ko'tarinki ijobiy ruxni yuzaga keltiradi.

Maktabda bolaning o'qituvchi bilan o'zaro munosabati ham ishga oid yangi asosda tashkil topadi.O'qituvchining baxosi o'quvchi bilimi va uni o'quv majburiyatlarini bajarish sifatining mezoniga aylanadi. Maktabga aqliy tayyorlikning muhim tarkibiy qismi maktabga o'qishga kirayotgan bolada atrof, dunyo haqida yetarlicha keng bilish boyligining mavjud bo'l shidir. Bilimlarning bu fondi o'qituvchi o'z ishini tashkil etishda tayanadigan zarur asos hisoblanadi.

Bolani maktabga aqliy tayyorligida bolalar egallagan bilimlarning sifati ajhamiyatlidir. Bilimlar sifatining ko'rsatkichi birinchi navbatda ularni bolalar tomonidan ongli egallaganligi; tasavvurlarining aniq va tabaqlashtirilganligi; oddiy tushunchlar mazmuni va hajmining to'liqligi; o'zlariga tushunarli o'quv va amaliy vazifalarni hal etishda bilimlarni mustqkil qo'llana olish qobiliyatları; muntazamlilik, ya'ni maktabgacha tarbiya yoshidagilarning narsa va hodisalar o'rtasidagi tushunarli, muhim aloqa hamda munosabatlarni aks ettira bilish qobiliyatidir.

Bolani maktabga aqliy tayyorgarligining tarkibiyqismi bola bilish faoliyatini muayyan darajada rivojlangan bo'l shidir. Bu o'rinda

Birinchidan bilish jarayonining o'sib boro'vchi ixtiyoriyligi; materialni ma'no jihatdan ixtiyoriy eslab qolish va takror ifodalash, narsa va hodisalarni rejali idrok etish, qo'yilgan bilish va amaliy masalalarni maqsadga muvofiq hal etish qobiliyati va shu kabilalar;

Ikkinchidan bilish jarayonlari sifatini oshirish: sezgilarning aniqligi, idrokning to'liq va tabaqlashtirilganligi, eslab qolish va takror ifodalashning tez va aniqligi;

Uchinchidan bolada atrof dunyoga bilish munosabatlari, bilimlarni egallash va maktabda o'qishga intilishning mavjudligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktabga aqliy tayyorlikni shakillantirishda bo'lajak o'quvchini tafakkur faoliyatining umumiy darajasi muhim ahamiyatga ega. Bolalar bog'chasining bolalarni aqliy tarbiyalashga oid olib borayotgan muntazam, maqsadga muvofiq ish sharoitlarida bolalarda (faoliyat) tafakkur faoliyatida narsalarning ko'p tomonlama tahlil qilish qobiliyati, ijtimoiy tarkib topgan sensor etalonlardan fan hamda hodisalar xususiyat va sifatlarini tadqiq qilishda foydalana bilish narsa va hodisalardagi asosiy aloqa, bogliqlik, belgilarni anikqlash asosida oddiy umumlashtirishlar qilish qobiliyati, uo'shashlik va farqlanuvchi belgilarni izchil ajratish asosida narsalarni qiyoslashni amalga oshirish ko'nikmasi tarkib toptiriladi. Bulajak o'quvchilarda akliy faoliyatning elementar mustaqilligi: o'z faoliyatni mustaqil rejlashtirish va uni reja asosida amalga oshirish ko'nikmasi, oddiy bilish vazifasini qo'yish va uni xhl etish kuo'ikmasi va shu kabilar rivojlantiriladi.

Maktabda aqliy tayyorlik, shuningdek bolalar tomonidan o'quv faoliyati elementlarini egallab olinishini ham o'z ichiga oladi.

Bolalar muntazam ta'lim sharoitlarida maktabgacha bolalik oxiriga kelib, o'quv faoliyatining asosiy tarkibiy qismlarini: tushunarli o'quv vazifasini qabul qilish, tarbiyachining ko'rsatmalarini tushunish va aniq bajarishni ishni kattalar tomonidan o'z, xulq-atvori, topshiriklarni bajarish sifati ustidan nazorat kilish kunikmasini, uzining va boshka bolalarning ishlariga tanqidiy baho berish qobiliyatini, egallab olishlari kerak.

Nutqni qanchalik yuqori darajada rivojlangan bo'lishi bolani

maktabga aqliy tayyorlarligining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Tovushni aniq talaffuz qilish, lug'atning boyligi, o'z fikrini mantiqiy grammatik to'g'ri bayon qila bilish, madaniy nutq muomalasi-bularning barchasi mакtabda muvaffaqiyatli o'qishning zaruriy sharti hisoblanadi.

Aqliy tayyorlik tarkibiga shuningdek, savodning boshlang'ich asoslari oddiy matematik tasavvurlar, ona tili yetarlicha keng bilim, ko'nikma va malakalar doirasi ham kiradi.

Shunday qilib, maktabdagi o'qishga aqliy tayyorlik bolalarni aqliy va nutqiy rivojlantirishning uzaro bog'langan tarkibiy qismlardan tarkib topadi. Bilish faoliyati, bilish qiziqishlari, bola tafakkuri usullari, atrof dunyo haqidagi anglangan sistemalashtirilgan tasavvurlar hamda elementlar tasavvurlar va elementar o'quv faoliyati umumiyligi darajasining birligi bolalarda maktabdagi o'quv materialini egallahsga aqliy tayyorlikni vujudga keltiradi.

Bolani mакtabda o'qishga jismoniy tayyorligi o'qishning muvaffaqiyatli bo'lishida katta ahamiyatga egadir. Maktabga chiqish munosabati bilan bola turmush tarzining qayta ko'rishi, kun tartibining o'zgarishi, jiddiy o'quv mehnati, darslarning davomiyligi undan sezilarli jismoniy zo'r berishni talab qiladi. Maktabga jismoniy tayyorlik ko'pgina tarkibiy qismlardan tarkib topadi. Bu birinchi navbatda bola salomatligining yaxshi bo'lishi, organizimning chiniqqanligi, ma'lum darajada chidamliligi va ish qobiliyati, kasalliklarga qarshilik ko'rsata olishidir. Bolalarni maktabga tayyorlashda barmoq mayda muskullarining rivojlanishi alohida o'rin egallaydiki, bu yozuvni muvaffaqiyatli egallahning zaruriy shartidir.

Maktabga jismoniy tayyorlik shuningdek bola tomonidan madaniy

gigiyenik malakalarni egallanishini, ularda shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilish odatini tarbiyalashni nazarda tutadi.

Jismoniy tayyorlik bola maktbaga yetuklikni shakllantirishning zarur tarkibiy qismi hisoblanadi.

Maktabga yetuklikni aniqlashda bola sog'ligining holati va organizmning biologik yetukligini baholash (antropometrik ko'rsatkichlar suyak, mushak, nafas olish va yurak-tomir sistemasining) rivojlanganligini nazarda tutuvchi ko'p omilli tahlildan, maktabga funksional tayyorlikni «Maktabga yetuklik»ni asosiy ko'rsatkichi va eng avvalo bir qator fiziologik funksiyalarining rivojlanish darajasini baholashdan foydalaniladi. Bularga: partada anchagina uzoq muddat o'tirish uchun zarur bo'ladigan tormizlanish kobiliyatining rivojlanganligi; harakatlarni yaxshi boshqarish, jumladan yozish va rasm solishga aloqador grafik vazifalarni bajarishda zarur bo'ladigan barmoqlarning mayda harakatlari; ijobjiy va tormozlanishiga xos shartli aloqalarni nisbatan tez hosil qilish hamda mustahkamlash, shuningdek ikkinchi signal sistemaning yetarlicha rivojlanganligi ta'luqlidir.

Bolalarni «Maktabga yetukligi»ni aniqlash maqsadlarida gigiyenistlar Kern-Irasekning (ChSSR) testlari, sovet tadqiqotchilari (M.M.Antropova, M.M.Kolsova, T.S.Sorokina va boshqalar) tomonidan ishlab chiqilgan metodikadan foydalanadilar. Bolalarni tekshirish ularni maktabda olti yoshdan o'qishlari mumkinligini aniqlash imkonini beradi.

Bolalarni maktabga jismoniy tayyorliklarini tekshirish natijasi ko'pchilik bolalarda uning asosiy ko'rsatkichlari norma atrofida ekanligini va hatto undan ilgarilashini ko'rsatdi.

Kun tartibi, chiniqtiruvchi muolajalar, muntazam jismoniy tarbiya mashgulotlari, hilma-xil harakatli o'yinlar va jismoniy mashqlar faol harakat rejimi bolalarni mifikda o'qishiga jismoniy tayyorligini ta'minlashning zaruriy shartlari hisoblanadi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar asosan MTMda va oilada maktabga tayyorlanadi. MTMlarda bolalarni rivojlanishi va maktabga tayyorlash 3 bosqichda amalga oshadi:

Bolalar nutqini rivojlantirish.

Jismonan rivojlantirish.

Ma'nan rivojlantirish.

Bolalarni maktabga tayyorlashdan maqsadi bola shaxsini bolalarni maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga qo'yiladigan davlat talablariga muvofiq sog'lom va yetuk maktabga o'qishga tayyorlangan tarzi shakllanishdan iboratdir.

Maktabga tayyor bo'limgan bolaning qabul qilishi bola shaxsining rivojlanishiga har tomonlama yomon ta'sir etadi. O'qishdagi o'zlashtira olmasliklar bolada o'qishga nisbatan salbiy munosabat tug'diradi. Uning jismoniy va ruhiy sog'lig'i ham xavf ostida. Ularda nevroz belgilari paydo bo'lishi mumkin: uyquning buzilishi, siylik ushlay olmaslik, bosh og'riqlari va boshqalar. Tarbiyasida ham qiyinchiliklar paydo bo'la boshlaydi: bola qanday bo'lmasin o'ziga diqqat-e'tiborni qaratmoqchi bo'ladi, yomon harakatlar qila boshlaydi. Agar bolaning tayyor emasligini vaqtida aniqlansa, bunday hollarning oldini olish mumkin bo'ladi.

Bolaning maktabga tayyorligini turli sohadagi mutaxassislar aniqlay oladilar. Bolalar shifokori bolani tekshirib, somatik rivojlanishini aniqlaydi, agar ma'lum bir jismoniy, ruhiy kamchiligi bo'lsa, uni ruhiy-pedagogik tekshiruvga yuboradi. Ma'lum bir nuqsonlarga ega bo'lgan bolalar maxsus maktabga yuboriladi. 1 sentabrga

qadar 7 yoshga to'limgan, bolalar bog'chasiga bormagan, pedagogik qoloq, nutq kamchiliklari, jismoniy rivojlanish kamchiliklari bo'lgan bolalarni maxsus konsultatsiyalar, boshlang'ich sinf o'qituvchilari tekshirib beradilar.

Tuman ruhiy-pedagogik konsultatsiyalarida bolaning mакtabga tayyorgarligini har tomonlama aniqlashadi. Ular ta'lim-tarbiyatagi qiyinchiliklarni bartaraf etishda profilaktik va korreksion usullarni tavsiya etadilar, tarbiya sohasiga oid maslahatlar beradilar. Bular bilan birga tuman mahalla qo'mitalari faol ishtirok etadilar. Bola tarbiyasiga salbiy ta'sir etadigan ota-onalar bilan mahalla qo'mitalari va boshqa ijtimoiy tashkilotlar ishlashadi.

Tuman ruhiy-pedagogik konsultatsiyalarida bolalarning mакtabga tayyorligini aniqlashda psixologik testlardan foydalanadi.

Testlarni mazmun jihatdan 2 guruhga bo'lish mumkin:

1. O'qish jarayonida ishtirok etadigan alohida psixologik tomonlarning shakllanish darajasini aniqlaydigan testlar.
2. Maktabga umumiy tayyorgarlikni tekshiradigan testlar.

Konsultantlar bolani ota-onalar oldida tekshiruvdan o'tkazadilar. So'ngra tekshiruvlar natijalari asosida quyidagi choralarni maslahat beradilar:

- a) umumta'lim mакtabining 1-sinflga yozish;
- b) o'qishni 1 yilga qoldirish;
- c) bolani bog'cha yoki mакtab qoshidagi maxsus sinfga yozdirish;
- d) bolani maxsus maktabga yozdirish.

Konsultatsiyalarning xulosasi asosida mahalla qo'mitalarining mакtab bo'limlari bola qayerda o'qishini hal qilishadi. Agar bola 7 yoshga to'lib, ammo uning sog'lig'i yaxshi bo'lmasa, unda tekshiruvlar natijasiga ko'rao'qish 1 yilga

qoldiriladi. 1 yildan so'ng, bola qaytadan maxsus tekshiruvdan o'tadi va qayerda o'qishi hal qilinadi.

Agar bola tarbiyasida ishtirok etadigan shaxslar unga alohida e'tibor ajratishsa, uning har tomonlama rivojlanishiga yaxshi sharoit yaratib berishsa, yordam berishsa, o'qishdan qolgan muhlat ijobiy natija beradi.

O'qishdan qolgan bolalar bilan ishslashda tarbiyachilar uchun hozircha maxsus dasturlar ishlab chiqilmagan. Pedagoglar bunday bolalar bilan mavjud bo'lgan. Maktabgacha ta'lif muassasasida ta'lif va tarbiya dasturi bo'yicha ishslashmoqda, faqat ularga ko'proq e'tibor ajratadilar.

Maktabda o'qishni o'zlashtira olmaydigan bolalar uchun maxsus sinflar ochiladi. Bunday sinfda o'qishni vaqtincha o'zlashtira olmaydigan, normal intellektga ega bo'lgan bolalar o'qiydilar. O'qishdagi qoloqlikni individual mashg'ulotlar, alohida parvarish va maxsus kurs tartibi yordamida bartaraf etish mumkin.

Maxsus sinf 12-15 o'quvchiga mo'ljallangan bo'lib, maktab direktorining ruhsati bilan ochiladi. Maxsus sinfga o'tkazish sinf rahbari tavsiyasi, maktab shifokori va ruhiy-pedagogik konsultatsiya xulosasi asosida amalga oshiriladi. O'quvchi maxsus sinfda vaqtincha, uning o'qishdagi qoloqligi bartaraf etilguncha qoladi. Sinfda 2 yilgacha o'qish mumkin.

Aqliy va jismoniy, nutq kamchiliklarigaega bo'lgan, qiyin tarbiyalanadigan, kasal va quvvatsiz bolalar maxsus maktablarga yuboriladi. Bularga aqli zaif bolalar uchun maxsus maktablar va yordamchi maktablar kiradi.

Maktabga umumiy va maxsus tayyorgarlik ko'rishga jiddiy talablar qo'yilgan, shuning uchun bolani maktabga doimiy ravishda tayyorlash kerak. Tayyorgarlik o'z-o'zidan, avtomatik tarzda paydo bo'ladi. Faqat maqsadga yo'naltirilgan va uzoq muddatga mo'ljallangan tarbiya jarayoni bolani maktabga yaxshi tayyorlanishiga olib keladi.

### **1.3§ Maktab ta'limi tayyorgarligiga ta'sir etuvchi asosiy omillar.**

Bolani qachon va qancha tayyorlash kerakligi haqida kattalar orasida turli fikrlar mavjud. Ko'pchilik ota-onalar va tarbiyachilar 3 yoshdan boshlab, 1-sinfga bir yil qolgungacha tayyorlashni ku-chaytirish kerak deb hisoblashadi. Ammo boshqalar faqat mak-tabdan oldingi bir yil davomida tayyorgarlik qilish kerak deb ay-tishadi. Ba'zi ota-onalar bola bog'chaga borishi bilan matabga tayyorgarlik boshlanadi, deb o'ylashadi.

Maktab hayotiga bolani kim tayyorlashi kerak? Bog'cha tarbiyachilari bolani matabga tayyorlash butun bog'cha davrida amalga oshishi kerakligini tushunishadi va dastur talablariga bi-noan uni amalga oshirishadi. Lekin aynan matabga borishdan avval ular tayyorgarlikka alohida diqqat-e'tiborini qaratishadi: talaffuzdagi kamchiliklarni bartaraf etishadi, bilimlarni bir sistemaga solishadi, qo'llarning mayda harakatini rivojlantirishadi va hokazo.

Lekin, oila bola tug'ilishidan keyin yashaydigan birinchi ijtimoiy muhit. Oilada bola o'zining birinchi ijtimoiy tajriba va malakalarini orttiradi, ota-onalar va kattalar namunalari orqali tarbiyalanadi, oilaviy rishtalarni tushunib yetadi va qadrlaydi. Shuning uchun bolani matabga tayyorlashda oila hal qiluvchi, mu-him ahamiyatga ega. Ota-onalarning ko'pchiligi bolani matabga tayyorlashda bog'cha bilan oilaning hamkorligi zarur deb hisoblashadi. Ba'zi ota-onalar esa bolani matabga tayyorlashda javobgarlikni bog'chaga yuklashadi, ba'zilari esa butun javob-garlikni o'z bo'yning olishadi.

Y.A. Kamenskiy o'zining «Onalar maktabi» kitobining matabga tayyorlash bobida yozishicha, barcha insonlar bajaradigan ishlar, ma'lum bir tayyorgarlikni talab qiladi. Ota-onalar shuni o'ylab, o'z bolalarini matabga tayyorlashadi. Matabga har tomonlama tayyorgarlikdan tashqari, Kamenskiy ota-onalar uchun quyidagi vazifalarni ko'rsatadi:

1. Bolalarda mакtabga borganda, o'z tengdoshlari bilan o'qigan va o'yнаганда xursандchilik hissini tug'dirish.

2. Bolalarga mакtabdagи ta'lимning mohiyatini tushuntirish, ularni mакtabdagи faoliyat turlari bilan tanishtirish.

3. Bolalarda bo'lajak o'qituvchilarga nisbatan hurmat va ishonchni shakllantirish.

Hozirda ota-onalar bolalarni mакtabga qanday tayyor-lashmoqda. Ota-onalarning ko'pchiligi mакtabda yaxshi o'qish-ning shartlaridan biri shaxsning umumiy rivojlanishi deb hisoblashadi. Ammo, bolaning aqliy rivojlanishi eng asosiysi deb bilishadi, shuning uchun mashg'ulotlarda bilim, nutq, tafakkur va xotirani rivojlantirishga harakat qiladilar. Keyingi o'ringa bolaning o'qish va yozish malakalarini rivojlantirishni qo'yishadi, yodlatishadi, suhbatlashishadi, birgalikda mantiqiy o'yinlar o'ynashadi. Gohida mehnat, sport, ashula yoki raqs bilan shug'ullantirishadi.

Xulosa qilib aytganda, bolani mакtabga tayyorlashda mакtabgacha ta'lим muassasalari tarbiyachilari bilan ota-onalarning hamkorlikda ish yuritishi ijobiy natija beradi.

**II-BOB. TAYYORLOV GURUHI BOLALARINI MAKTAB  
TA'LIMIGA TAYYORLASHNING MAZMUNI, SHAKL,  
METODLARI.**

**2.1§ Bolalarni maktabga tayyorgarlik mazmuni.**

Maktabdag'i majburiy ta'lim bolaga ma'lum talablarni qo'yadi. Ma'lumki shu bola ta'lim-tarbiyaviy muassasaning talablarini baj'ara oladigan rivojlanish daraj'asiga yetish kerak, faqat shundagi bolani maktabga yozdirish mumkin.

Maxsus adabiyotlarda bolalarning maktabga tayyorgarligini mazmuni va mezonlari aniq ko'rsatib berilgan, lekin bolani maktabga tayyorlashda bola shaxsini qaysi tomonlari va qanday rivojlantirish kerakligi masalasida ota-onalar va bog'cha tarbiyachilar tasavvurlari turlichadir. Bola tarbiyasida ishtirok etgan kattalar orasida o'tkazilgan so'rovlar shuni ko'rsatadiki, ko'pchilik ota-onalar uchun bolaning maktabda muvaffaqiyatli o'qishini asosiy hal qiluvchi shartni uning umumiyligi rivojlanishi tashkil etadi, ya'ni yaxshi sog'liq, jismoniy chiniqish, axloqiy va ijtimoiy yetuklik. Ba'zi bir kattalar (ota-onalar) faqatgina aqliy rivojlanish muvaffaqiyatli maktab o'qishning asosiy omili deb hisoblashadi. O'z fikrlarini uiar shunday asoslab berishadi, xususan, birinchi sinfda bolalarga barcha o'quv fanlari mazmunini o'zlashtirish qiyin bo'ladi va yana hozirgi ilmiy-texnikaviy rivojlanish insonning aqliy qobiliyatiga juda katta talablar qo'yadi. So'ralganlarning ko'pchiligi eng, avvalo, bolaning jismoniy va aqliy rivojlanish darajasini ko'paytirish kerak deb hisoblashadi. Ota-onalarning kamchiligi bolaning hissiy-axloqiy rivojlanish darajasini nazarda tutib, bolaning ijtimoiy rivojlanishiga asosiy kuchni qaratishadi.

Bolani maktabga tayyorlashda ota-onaning kuchlari, asosan, o'qish jarayoni bilan bevosita bog'liq, malaka va ko'nikmalarga yo'naltiriladi. Ular birinchidan - bolani diqqatini bir joyga jalb qilishni o'rganish kerakligi,

ikkinchidan uning bilimlarini to'ldirib, xotira, tafakkur va nutqini rivojlantirish kerakligi, uchinchidan - maktabga bo'lgan qiziqishini o'stirib borish kerakligini ta'kidlab aytishadi. Ba'zilar bolalarning irodaviy sifatlarini rag'batlantirish va mustahkamlash kerak deb hisoblashadi, ular bolaning qat'iyatli va tirishqoq bo'lishiga harakat qilishadi hamda bolada intizomni, harakatchanlikni shakllantirish, ya'ni uning butun xulqini shakllantirish. Qo'l amaliyotini rivojlantirish ham alohida bir qism bo'lib kiritilgan.

Ota-onalarning ko'pchiligi birinchi sinfga borishdan oldin bolaga o'qish va yozishni o'rgatish kerak emas deb hisoblashadi, chunki keyinchalik, bola maktabga borganda o'qishga qiziqishni yo'qotib qo'yish mumkin, darslarda be'tibor bo'lishi mumkin. Ularning bolaga o'qish va yozishni o'rgatmasliklarining yana bir sababi mакtab talabalarini bilmay turib, noto'g'ri o'rgatib qo'yishdan xafvsirashadi (qo'rqishadi). O'qish va yozish bu faqat mакtab faoliyat turlari va ularni o'rgatish maxsus tayyorlangan o'qituvchilar ostida amalga oshish kerak deb hisoblashadi.

Ota-onalarning boshqa bir guruhi bolaning maktabga borishdan oldin o'qish va yozishga o'rgatishga intiladilar. Ular bolaga mакtab tomonidan qo'yilgan talablari va 1-sinfda o'qitish tempi juda baland va tez, shuning uchun oldindan olingan (o'zlashtirilgan) malakalar bolaga har

qanday topshiriqlarni bajarishga yordam beradi va natijada, ortiqcha zo'riqishni oladi, deb asoslab berishadi.

Shunday ota-onalar ham borki, ular bolani o'z shuhratparst niyatlarga o'rgatadilar: o'quv yili boshida ularning bolalari o'z tengdoshlaridan oshib o'tib (ilgari o'tab ketib) va shu tufayli endi shakllanayotgan kollektivda manfaatli o'rinni egallaydilar.

5-6 yoshli bolalar bilan ishlaydigan bog'cha tarbiyachilar so'rovlari shuni ko'rsatdiki, ko'pchilik bolaning mакtabga tayyorlashda jismoniy va aqliy rivojlanishni afzal qo'yish-moqda. Ta'lim tarbiyaviy - ishni bolani tafakkuri, nutqi va bilim jarayonlarini shakllantirishga yo'naltirilib, pedagoglar bolani tabiat va jamoat to'g'risida asosiy bilimlar bilan boyitishadi. Ular, ota-onalar kabi aqliy va jismoniy tayyorgarlikning yuqori darajasi bolaning shu sohadagi duch kelgan qiyinchiliklardan saqlaydi, deb hisoblashadi. Bunda, shaxsning iroda va intizom kabi sifatlarini tarbiyalashga kamroq e'tibor beriladi.

Qanday qilib olimlar maktabga tayyorgarlikni aniqlashadi? Pedagogik va psixologik adabiyotlarda bolaning ta'lim va tarbiya jarayoniga kirib, uning mazmuni muvaffaqiyatli o'zlashtirib olishga yo'l qo'yadigan shaxsning umumiy rivojlanganligi deb ko'rsatilgan, yana maktabgacha yoshdag'i bola o'zining jismoniy, aqliy va estetik rivojlanishini egallashi kerak bo'lgan.

Maktabga tayyorgarlik darajasini bolaning katta aqliy va jihatlarning yaxlit bir sistemasi (tartibi) deb ko'rsatilgan. Jismoniy vazifalarini bajara oladigan butun organizm va asab sistemasining ma'lum yetuklik saviyasini aniqlaydi (ko'rsatadi). Shu bilan bir qatorda tevarak atrof haqida olinganoddiy bilimlar, amaliy va aqliy faoliyatdagi oddiy malakalar,

tafakkur, nutq va bilim qiziqishlarining rivojlanish darajasi, hulqning ijtimoiy va axloq-irodaviy sifatlarini shakllanish darajasi katta ahamiyatga ega.

Psixologlar (ruhshunoslar) maktabga umumiy tayyorgarlikning quyidagi tarafiarini ajratadilar: jismoniy, aqliy, ijtimoiy-axloqiy (yoki ijtimoiy his tuyg'uli) va sababli (motivli).

Boshlang'ich mакtab bolaning o'qitishga tayyorgarlik darajasiga o'z talablarini qo'yadi. Talablardan biri - bog'cha bolalariga xos bo'lgan kun tartibga rioya qilish. Maktabgacha bolaning bog'chaga borish vaqtি oilaviy sharoitga

qarab belgilanadi. Ammo mактабга borish majburiy bola darslarga har kuni kelishi shart.

Bog'cha bolasi kun bo'yи tuzilishi va mazmuni qiziq bo'lган turli xil faoliyatlar bilan shug'ullanadi. Asosan, bola o'z xohish (istagi) bo'yicha o'ynaydi yoki ish bilan shug'ullanadi. Bola o'zining mashg'ulotlarini va o'yinlarini vaqt va mazmunini o'rganish mumkin. Maktabda esa kunning birin-chi qismining asosiy vaqtini tartibli (sistemali) o'qitish egallaydi; bundan tashqari, kunning ikkinchi qismini ma'lum vaqtini yana darslarni tayyorlashga ajratish kerak. Maktabda bola o'z xohishi va qiziqlishi bilan tanlagan mashg'ulotlar chegaralangan. Bola maktab tartibi va darslar jadvaliga bo'ysunishi kerak. Har qanday ob-havoda bola maktabga vaqtida kelishi, o'quv qurollarini olib kelishi, maktab ta'lim sharoitlariga ko'nikishi kerak. Darslarda ma'lum vaqt tinch o'tirib, diqqatini bir joyga jalb qilib ishlashi tanaffuzda esa nisbatan qisqa vaqt ichida o'z kuchlarini tiklab olishi kerak bo'ladi. Maktabdag'i ta'limning tashkil etilishi va mazmuni o'quvchining mustaqil ishlashini ta'minlab beradigan malaka va ko'nikmalarining rivojla-nishini yuqori darajasini talab qiladi. Bolaning yozuvni muvaffaqiyatli egallashi uchun, masalan, unda barmoqlarini mayda harakatlari rivojlangan bo'lishi shart.

Shunday qilib, maktab hayotiga jismoniy va ruhiy jihatdan o'rganish, uchun bolaga eng, avvalo, mustahkam sog'liq, orgnizmni kasalliklarga kurashish qobiliyati, jismoniy chiniqish va chidamlı bo'lish kerak. Sistemali (tartibli) ta'lim uchun bolaning aqliy rivojlanishi, ya'ni, aniqrog'i, maktabga umumiylu ruhiy tayyorgarligi muhim deb hisoblanadi.

Bola birinchi sinfda uchta fan (o'qish, yozuv va matematika)ning asoslarini, tabiat va jamiyat to'g'risida oddiy bilimlarni egallaydi. Bola odamlar, jismlar va tevarak atrof-dagi hodisalar haqida ma'lum tasawur bilan maktabga kelishi kerak.

Bolaning o'quv materialni to'liq o'zlashtirishi va ta'limni bola qobiliyatlariga mos kelishi uning aqliy faoliyatiga bog'liq bo'ladi.

Bolaning yaxshi o'qishiga aqliy faoliyatining rivojlanish darajasi, idrok, tasavvur, xotira va tafakkur funksiyalari, hamda aqliy faoliyat bilan shug'ullanish odatlari ta'sir qiladi. Bola tahlil qilish (analiz) qobiliyatiga o'rghanish kerak: narsalarni (predmetlarni) idrok etganda muhim va muhim bo'limganlarni ajrata bilish, kuzatayotgan hodisalarni umumlashtirish, guruhlash va hokazo. Bola zehinli, ziyrak, topqir, mustaqil bo'lishi kerak. Zavq, hursandchilik keltiradigan aqliy faoliyatga nisbatan bolada qiziqish paydo bo'ladi.

Ta'limning muvaffaqiyatli bo'lishi ko'p jihatdan bola nutqining rivojlanish darajasiga, uning lug'at boyligiga, mustaqil, aniq, ifodali va grammatik jihatdan to'g'ri gapira berishiga bog'liq bo'ladi. Nutq-aqliy faoliyatning asosiy qismi (komponenti) va bolaning shu faoliyati natijalarini aytib bera oladigan asosiy vosita bo'ladi. O'qishda ijobiy natjalarga erishishning muhim asoslaridan bilimdonlik, tirishqoqlik hisoblanadi.

Bolada mактабга borish bilan nafaqat hayot tartibi va asosiy faoliyatida, balki ijtimoiy o'rnida ham o'zgarishlar sodir bo'ladi. Sola munosabatlari shakllangan tanish tengdoshlar va kattalar jamoadan, notanish bolalar va kattalar jamiyatiga o'tadi. Oldingi jamoada (kollektivda) bola ma'lum bir o'rinni egallash, o'zini huquq, burch va imtiyozlarini bilar edi, yangi shakllanayotgan mактаб jamoatida esa bola o'zini boshidan ko'rsatishi kerak. Bolaning burch va huquqlari, mактабгача davrga nisbatan, aniqroq va qattiqroq belgilanadi. Bola faoliyatini baholashning muhim mezonlardan bin, nafaqat mактабда, balki oilada, tengdoshlar davrasida, — bu muvaffaqiyatli o'qish bo'lib qoladi.

Baho qo'yish va baholash ijtimoiy ahamiyatga va rasmiy hujjat shakliga ega.

Maktabda uzoq muddat ota-onas g'amxo'rligisiz bo'lgani sababli, bola o'z yoshiga mos his tuyg'u va iroda mustah-kamligiga ega, o'z xulqini nazorat qila olishi kerak. Agar o'quvchi o'qishga ijobiy yondashsa, o'qishni xohlab, intilsa, ta'limdagi boshlang'ich qiyinchiliklarni tezroq va osonroq bartaraf etiladi. Iroda bolaga barcha maktab vazifalarini doimiy va muvaffaqiyatga bajarishga kerak bo'ladi.

Bilim va ijtimoiy hayot qonun-qoidalariga rioya qilish, xarakterning ijobiy jihatlarining shakllanganligi bolaga boshqa bolalar bilan muloqot o'rnatishda, sinfdoshlar bilan do'stona munosabat o'rnatishda va jamoada faol ishtirok etishda juda katta yordam beradi.

Bolani maktabga umumiy tayyorgarligi deganda uning har tomonlama, ya'ni uning ma'lum bir taraflari emas, balki hamma taraflari rivojlangan bo'lish kerak. Har qanday bir tarafini rivojlanmagani, zaifligi (aqliy, his-tuyg'uli, irodaviy yoki amaliy-harakatli) maktabda o'zlashtirmaslikning sabablaridan bo'lishi mumkin.

Shu bilan birgalikda, birinchi sinfda o'quv fanlarning (o'qish, yozish, matematika) mazmunini o'zlashtirish uchun maxsus bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishlari kerak. Masalan, matematika o'qitishda o'qituvchi bola narsalarning rangi, shakli, katta-kichikligi, sonini ajrata biladi deb hisoblaydi; yozuvni o'rganishda esa bola yozuv va rasm quollarini to'g'ri ishlata olishini, grafik mashqlarni bajara olishga tayanadi. Shu kabi bilim, malaka va ko'nikmalar maktabga maxsus tayyorgarlikni tashkil etadi. Umumiy va maxsus tayyorgarlik bir-biriga zid kelmaydi, bir-birini chiqarib tash-lamaydilar. Maktab fanlarini mazmunini o'zlashtirishda bolani, maxsus tayyorgarligi umumiy tayyorgarlikdan kelib chiqadi, unga mos keladi va tayanadi va aksincha, maxsus

tayyorgarlikning mazmuni ta'limning umumiy tayyorgarlikka yordam berish kerak.

Bola shaxsini rivojlantirishda ma'lum bir tarafiga (asosan, aqliy) kuchli yo'naltirish berishga alohida e'tibor berish kerak. Kattalar har doim shuni esda tutishlari kerakki bolaning yoshini hisobga olinmagan tezlashtirilgan, jadal o'qitish zarur hisoblanadi.

Maktabgacha davr inson shaxsini shakllantirishda juda katta ahamiyatga ega, chunki shu davrda shaxsning asoslari solinadi. Agar shaxsni har taraflama shakllantirishda aynan shu yoshdagi qulay sharoitlardan qo'llanilmasa, rivojlanishning to'xtab qolishlari yoki chetlashlarini bartaraf etish nihoyatda og'ir kechadi.

7 yosh - bu bola yangi sharoitga tez o'rganadigan va o'qish jarayonida muvaffaqiyatli ishtirok etadigan davr hisoblanadi. Ya.A.Komenskiy bolaning yettinchi yili - bu bekorchilikda buzilib ketmaslik uchun maktabda o'qishni boshlaydigan vaqt hisoblagan. Bolani ona maktabida 5-6 yil ta'lim-tarbiya olishini (oilada bolani ona tarbiyasi nazarda tutilgan) u yetarli va optimal muhlat deb hisoblagan.

Bolaning yoshi (7 yosh) mezonidan tashqari, uni sog'lig'ini umumiy holati va asosiy antropometrik ko'rsatkichlari jismoniy tayyorgarligini belgilashadi. Bunda bo'yi (7 yoshga 110 sm dan kam bo'lmasligi kerak), vazn (20 kg), ko'krak aylanasi (nafas chiqqanda 55 sm dan kam bo'lmasligi kerak), tanadagi o'zgarishlari suyaklarni o'sishi, tishlarni almashuvi.

Maktabga tayyor bo'lgan bola jismoniy chiniqqan, bar qanday ob-havoda uzoqda uzoq vaqt yura oladi, asosiy harakat malakalarga, to'g'ri osankaga ega, o'zining harakat-larini nazorat qila oladi, tozalikka rioya qiladi.

Bolaning bilim jarayonlarini rivojlanganligi uning jamiyat va tabiat, voqealarni tushunib yetishi, kuzatish qobiliyati, kundalik hodisalarini to'g'ri nomlash, bir-biri bilan bo'lganlar aloqani tushunib yetishi ko'rsatiladi. Bola o'z fikrlarini ifoda eta bilish kerak, ijodiy va mustaqil fikrlay olishi, aniq ko'rgazma materialga tayanib, masalalarini yecha bilishi kerak. 6-7 yoshli bola oiladan tashqarida ham o'zini dadil tutishi kerak. Shakllangan madaniy ko'nikmalari o'z tengdoshlari bilan munosabatlar o'rnatishga yordam beradi.

Bolaga mustaqil o'zi kiyinishni, ovqat yekishni, narsalarini toza va tartibli saqlashni o'rganishi kerak. Bola kattalar mehnatini muhimligini tushunishi va hurmat qilishi kerak. Har qanday ishga ijobiy yondashib, uni diqqat, e'tibor bilan vaqtida bajarishi lozim.

Bolada estetik idrokni shakllantirish, o'zini yoshida mos adabiy asarlarga qirqish uyg'otish, yon-atrofni estetik (nafis) jihatdan bezatishiga intishini rivojlantirish kerak. Bolani musiqani, adabiy so'zni, rasmlarni chiroyini sezishni o'rganishi kerak; ashula aytishi, rasm chizish, yasash, toipshmoqlar, laparlar, tez aytishlar, maqollar, ertaklarni bilishi va aytib berishi, kitoblarni avaylashni bilishi kerak.

## **2.2§ Tayyorlov guruhi bolalarini maktab ta’limiga tayyorlashning shakl, metodlari.**

Ta’lim ya’ni, o’qish shakli deganda, talim beruvchilik va o`quvchilarning belgilangan tartibda hamda muayyan rejimda kechadigan mahsus uyushtirilgan faoliyati tushuniladi.O`qitish shakllari o`quvchilarning miqdoriy tarkibiga ko`ra o`quvchilar va o`qituvchilar o`rtasidagi o`zaro harakatning tabiatiga ko`ra (faollik va mustaqillik darjasи) faoliyat usullariga ko`ra (qaysi metod va usullar bilan) o`tkazilish joyi shuningdek yahlit o`quv jarayonida tutgan mavqeiga ko`ra farqlanadi. Bu mavqe talim jarayonining u yoki bu shaklid tashkil etishda hal etiladigan talim- tarbiyaviy vazifalarning tabiatiga ko`ra belgilanadi.

O`qitishning tashkiliy shakli bo`lmish mashg`ulotlar uchun quyidagi qator hususiyatlarga xos.

Bolalar mashg`ulotda «Bolalar bog`chasida talim- tarbiya dasturi»da ko`zda tutilgan talimning u yoki bu bo`limga oid ko`nikmalarni o`zlashtiradilar.

Mashg`ulotlar muayyan yosh guruhi bolalarning doimiy tarkibi bilan o`tkaziladi.

Mashg`ulotlar katta kishilar tomonidan tashkil etiladi va o`tkaziladi. Ular mashg`ulotlarning mazmuni va vazifasini belgilaydilar, metodlar va usullarni tanlaydilar bolalarning bilish faoliyatini bilim, ko`nikma va malakalarni o`zlashtirishga yo`naltiradilar hamda tashkil etadilar.

Mashg`ulotlarda dastur mazmunining barcha bolalar tomonidan o`zlashtirilishi amalga oshiriladi, shuning uchun ham ular o`qitishning asosiy shakli hisoblanadi. Boshqa o`qitish shakllaridan bolalarning mashg`ulotlar mazmunini o`zlashtirishga oid tajriba va tayyorgarliklarini boyitish yoki bilimlarni o`zlashtirish jarayonini aloxida o`zgartirish vositasi sifatida foydalilanadi. Sabab

o`tilgan hususiyatlar mashg`ulotlarni o`qitish shakli sifatida mактабдаги о`qитиш шакли-дарсга яқинлаштиради, бу билан о`qитишдаги кетма-кетлик та'mинланади. Dars va mashg`ulot o`rtasidagi asosiy farqlar yuklatishning intensivlik darajasida o`qitish ishini olib borishda qo`llaniladigan tuzilish va metodlardadir.

Mashg`ulotlar o`qitishning quydagisi bo`limlari bo`yicha olib boriladi atrof-muxit bilan tanishtirish va bolalar nutqini o`stirish elektor matematik tasavvurlarni rivojlanitirish, tasviriy faoliyat va qurish- yasash, jismoniy tarbiya musiqaviy tarbiya.

Mashg`ulot dasturi quydagilarni ko`zda tutuadi:

- Obe'ktlarning xususiyatlari va sifalari, ularning o`zgarishlari, aloqalari xarakat usullari va hokazolar haqidagi bilimlarning muayyan hajmini, ularni dastlab o`zlashtirish, kengaytirish mustahkamlash umumlashtirish va sistemalashni.
- Faoliyatning mahsuldor turlarida qo`llaniladigan amaliy ko`nikma va malakalar xajmi.
- O`quv -bilish faoliyatining ko`nikma va malakalari xajmini, ularning dastlab shakllanish yoki takomillashuvini, qo`llarga oid mashqlarni.
- Psixik va bilish jarayoni sifatlarini rivojlanirish vazifalarini.
- Muayyan mashg`ulotda beriladigan bilimlarga, voqeа va xodisalarga bolalar munosabatini shakllantirish o`z faoliyatiga munosabatini tarbiyalash tengqurlari o`rtasida o`zaro munosabatlarni o`rnatish, shuningdek, o`qitish mashg`ulotlari sharoitida yurish-turish qoidalari va normallarini o`zlashtirishni nazrda tutadi.

Shunday qilib, mashg`ulotlar mazmuni ham ta'limiylar ham tarbiyaviy vazifalarini ular birligida va o`zaro harakatda hal etishga yo`naltirilgandir.

Har bir mashg`ulotdagi o`quv mazmunining hajmi uncha katta bo`lmaydi. U turli yosh guruhlardagi bolalarning xotira va qobiliyatlarini xisobga olgan xolda belgilanadi.

Masalan kuzatish chog`ida yangi obe`ktlar bilan tanishtirishda kichik tarbiya yoshi guruhdagi bolalar 2-3 yorqin belgini eslab qolish , o`rta tarbiya yoshi guruxiga mansub bolalar 3-4tagacha katta tarbiya yoshi guruxdagilar esa 5-6 tagacha belgini eslab qolishga qodirdirlar.

Bolalar bog`chalaridagi mashg`ulotlarning tuzulishida bilimlar, ko`nikma va malakalarni o`zlashtirishni tekshirish o`tkazilmaydi. Bu ish bolalarning mashg`ulotlaridagi faoliyatni kuzatish jarayonida bolalar faoliyati natijalarini tahlil qilishda shuningdek kundalik hayotda va bolala yutuqlarini turli ilmiy metodikalar yordamida o`rganish chog`ida amalga oshiriladi.

Mashg`ulotlar barcha bolalar bilan yalpisiga olib boriladi. Bu uni tashkil etilishi va bolalar faoliyatiga rahbarlik qilishga alovida e'tiborni talab qiladi. Avvalo bolalarning umumiyligi yuqori ish qobiliyatini ta'minlaydigan gigiyenik sharoitlar yaratilishi lozim. Mashg`ulolar toza, yaxshi shamolantirilgan, bolalar bo`yiga mos mebellar bilan jihozlangan honada o`tkazilishi lozim.

Har bir aniq mashg`ulot uchun uyuushtiriladigan vaziyat amalga oshiriladigan o`quv faoliyatining tabiatga mos bo`lishi kerak.

Bolalar xonada ularning faoliyat ko`rsatishlari uchun imkoniyat juda yaxshi bo`ladigan tartibda joylashtirilishi zarur: bolalar stolda tarbiyachiga ro`para bo`lib yoki yarim doira yasab o`tirishlari,birlashtirilgan stollar atrofida o`tirib yoki tura olishlari kerak.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar o`qitishda ko`rgazmali va amaliy metodlardan foydalanish buyumli, tasviriy chizmali kabi xilma-xil ko`rgazmali materiallarni qo`llanish bilan bog`liqdir. Ulardan biri bolalarning birgalikdagi faoliyatida foydalaniladi, boshqalari tarqatma material sifatida ishlataladi. Mashg`ulotni tashkil etishda materialning oqilona joylashishini ko`zda tutiladi, undan foydalanish izchilligi, tavsiya etish usuli u bilan ishslash tabiatni beliglab olinadi.

*Sayr* -tomosha o`qitish shakli sifatida.

*Sayr* -tomosha mashg`ulotining o`ziga xos turi sifatida qarash mumkin. Mashg`ulotlarda bo`lgani kabi sayr-tomoshada xam dastur mazmunida aniqlashtiradigan ta'limiy rivojlantiruvchi va tarbiyaviy vazifalar qo`yiladi hamda xal etiladi.

Mashg`ulotlarda bo`lgani kabi sayr tomoshada barcha yosh guruhdagi bolalar ishtirok etadilar. Biroq sayr-tomoshani tashktl etilishining o`ziga xos hususiyati bolalar faoliyatining mazmuni shuningdek uning ta'limiy ish sistemasidagi o`rni sayr-tomoshani bolalar bog`chasida ta'limni tashkil etishning o`ziga xos yalpi shakli sifatida qarab chiqishga ehtiyoj uyg`otadi.

*Sayr* tomosha bolalar bilan olib boriladigan ta'limiy ishning tashkiliy shakli sifatida paydo bo`lgan maktablarda tabiiy fanlarni o`rganishda keng qo`llanilib kelingan. Biroq bolalarning sayr-tomoshadagi bilish faoliyati tabiat-hayotiy hodisalarini bevosita idrok etish kuzatish maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar uchun xam xosligi isbotlanadi. Sayr-tomoshada turli umumlashagnlik darajasidagi tasavvurlar shaklida shakllantiriladigan buyumlar maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar bilan olib boriladigan ta'limiy ishlar dasturi talablariga javob beradi.

Bularning barchasi sayr-tomoshani bolalar bog`chasidagi tashkil etiladigan ta'limning muxim shakliga aylantirilgan.

Sayr tomoshaga bolalarga beriladigan hilma-xil topshiriqlarning kiritilish u yoki bu metodlardan asosiy vazifa kuzatiladigan obektlar haqidagi yorqin ko`tarinki va tiniq tasavvurlarni ta'minlash talabiga javob berishi lozim.

Sayr-tomoshada asosiy ob'ektlarni idrok etish bolalardan diqqatlilikni, uyushgan xulq-atvorni talab qiladi. Zotan rang-barang ob'ekt va hodisalar, ba'zan tanishtirish uchun rejalashtirilmagan narsalarga duch keladilar.

Bularning barchasi sayr-tomosh o`tkazishda muayyan qiyinchiliklar tug`diradi va tarbiyachidan uni o`tkazishga puxta tayyorgarlik ko`rishni talab qiladi.

Sayr-tomoshani o`tkazish uchun odatdagи mashg`ulotdan keng ko`lamlı ta'limi y vazifa tanlab olinadi u kuzatuvchanlikni, qiziqishni ijobiy munosabatni rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi mazmunga ega bo`lishi mumkin va xokazo.

Ta'limi y vazifalarning aniq mazmuniga qarab sayr-tomosha yo`nalish, tuzulish ishlab chiqiladi, metodlari belgilanadi. Sayr tomosha o`rnini belgilayotganda uning bolalar muassasasida uzoq-yaqinligini ham xisobga olinish kerak-sayr tomosha joyiga olib boriladigan yo`l toliqtiriladigan bo`lmasligi lozim.

Sayr-tomoshaga tayyorgarlik ko`rishda bolalar to`plashi mumkin bo`lgan narmsalar belgilanadi, materialni tashib yurish uchun xam, uni keyin joylashtirish uchun xam tegishli anjomlar xozirlanadi.

Sayr tomoshada olingan tasavvurlarni chuqurlashtirish va mustaxkamlashga oid keyingi ishlar mashg`ulotlar sistemasida va kundalik xayotda: tasviriy faolitda,

qurish-yasashda hikoya qilib berishda bolalar mehnatida amalga oshiriladi. Mashg`ulot so`ngida yakuniy suhbat o`tkaziladi.

Tarbiyachisi kun bo`yi o`qitishni bolalarni tashkil etishning hilma-xil shakllaridan foydalangan xolda amalga oshirish imkoniyatiga ega bo`ladi. Sayr vaqtida tabiat xodisalarini kattalar mexnatini bolalar bilan yalpi kuzatish o`tkaziladi. Vaqt-i-vaqt bilan kunning ikkinchi yarmida tarbiyachi bolalarga ularg ma'lum, ular sevib qolgan adabiy asarlarni o`qib beradi. Kundalik hayotda bolalar bilan turli metodlardan foydalanib olib boriladigan ta'limiy ishlar barcha hollarda uning asosiy shakli-mashg`ulot bilan uzviy bog`liqdir. Bunda ikki vazifa hal etiladi: keyinroq mashg`ulotlarda qo`laniladigan tasavvurlar yoki xarakat tajribasining oldindan to`plnish yoki ko`nikma va malakalarni ishlab chiqish,mashg`ulotlarda olingen tasavvurlarni mustaxkamlash.

Shu maqsadlarda kundalik pyedagogik jarayonda o`qitishning bolalarning uncha katta bo`lmagan miqdorini qamrab oluvchi guruxli shakli qo`llaniladi. Bunda avtодidaktik o`yinlardan ko`proq foydalaniladi. O`qitishning guruhli shaklida o`sha bolalar yoki boshqalari bilan hilma-xil alohida mashqlar olib boriladi. O`qitishning alohida va guruhli shakllaridan foydalanish uning tabaqalanishini bolalar o`quv-bilish faoliyati rivojlanishining darajasini birmuncha aniqroq xisobga olishni va ularning mashg`ulotlardagi o`qitish jarayoniga faol kirishishini ta'minlaydi.

## **2.3 § Tayyorlov guruhi bolalarini maktab ta’limiga tayyorlashda psixologik-pedagogik tashhis dasturi va uni tashkil qilish.**

Mustaqil O’zbekiston Respublikasining kelajagi ko’p jihatdan yosh avlodning qanday tarbiyalanishiga bog’liqdir. Bu o’z navbatida ta’lim tizimining samarali va serqirra usullarini belgilash va ayniqsa, kichik yoshdagi bolalarimizni boshlang’ich maktab ta’limiga talab darajasyida tayyorlash muammosini ijobiy hal etish vazifasini qo’ymoqda.

Barchaga ma’lumki, bolani maktabda muvaffaqiyatli o’qishi maktabgacha tarbiya davridagi tayyorgarlik darajasiga bog’liq. Bolani maktabda o’qishga — hayotning yangi bosqichiga tayyorlash uning shaxsi rivojlanishi-ning barcha tomonlarini o’z ichiga oladi va maktabgacha tarbiya davrida amalga oshiriladi. Maktab dasturlarining o’zgarishi bilan bog’liq holda maktabga kelayotgan bolalarning rivojlanishi darajasiga talablar ortib bormoqda. Bu rivojlanish darjasи maktabda o’qishga tayyorgarlik bilan belgilanadi.

Maktabga borganda, bola hayot tarzi o’zgaradi, unda atrofdagi odamlar bilan yangicha munosabat tizimi paydo bo’ladi, faoliyatining yangi formalari shakllanadi. Yangi hayot tarzi yangi faoliyat shakllarini amalga oshirish uchun bolada irodaviy tayyorgarlikni (bolalar o’z xulqini, bilish faoliyatini boshqarishni, uni o’quv malakalariga yo’naltirishni bilishlari lozim) tarbiyalash, o’zida axloqiy, motivatsion tayyorgarlikni, o’z-o’zini nazorat qilish malakalarini mujassamlashtirgan psixologik tayyorgarlikka ahamiyat berishi lozim.

Shuningdek, bolalarni maktabda o’qishga tayyorgarligi ularning bilish faoliyati rivojlanishi darajasiga bog’liq, bilish jarayonining rivojlanish darjasи qancha yuqori bo’lsa, bolalar tomonidan o’zlashtirilayotgan bilimlar sifati shuncha yaxshi bo’ladi.

Bolani mактабда о'qishga тayyorlashda uning aqliy jihatdan tayyorligi 3 ta asosiy komponentdan, ya'ni: uni o'rab turgan tabiat, odamlar hayoti, san'at dunyosi haqidagi bilimlarni o'zlashtirish; unda xotira, diqqat, nutq va tafakkur kabi ruhiy jarayonlarning ma'lum darajada rivojlanganligi, va nihoyat, bolada, — o'qituvchilar aytgandek o'qish faoliyati elementlaridan iborat.

Bolalarga tabiat hodisalari va atrofdagi xayot xakida bilimlarni berish va ularga tegishli fikrlarni shakllantirish, ularni mактабга tayyorlashda juda katga ahamiyat kasb etadi.

Ma'lum darajadagi bilim mazmunida fikrlash sifatini taxlil (analiz) qilish, solishtirish, umumlashtirish qobiliyatları shakllanadi. Boshqacha qilib aytganda, tegishli bilimlarga ega bo'lmay turib, bola aqliy jihatdan rivojlanmaydi.

Ammo ko'pchilik makgabgacha yoshdagи bolalarning rivojlanipsh yuqorida ko'rsatib o'tilgan talablarga javob bermaydi. Bolani mактабда o'qishga tayyorlashda ota-onalar, bog'chadagi tar-biyachilar ishtirok etadilar. Bolalar bog'chasi dasturlarida bolalarni mактабга tayyorlash uchun aloxida ahamiyat berilgan. Lekin,dastur faqat ko'rsatmagina beradi, xolos.Bolani mактабда o'qishga tayyorlashning takomillashtirilgan usullari, yo'llarini ishlab chiqish hozirgi vaqtda alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Bundan tashqari, hozirgi vaqtda respublikamizda bolalar bog'chasi bilimlar darajasini belgilaydigan standartlar ishlab chiqish ko'zda tutilmoqsa. Bolalarni mактабда o'qishga tayyorgarliklari standartlarini ishlab chiqish ularning o'qishga tayyorgarliklari turli darajalarini aniqlashga imkon beradi va bolalarni mактабга yo'naltirishda differensiatsiya qilishga zamin yaratadi.

Ushbu tayyorlangan qo'llanma "5-7 yoshli bolalarni mактаб ta'limiga tayyorgarliklarini psixologok-pedagogik tekshirish dasturi" standartlari ishlab

chiqilishidagi birinchi qadamlaridan biridir. Dastur bolalar bog'chalari metodistlari, tarbiyachilar, psixologlar, defektologlar uchun mo'ljallangan.

Tekshirish jarayonida eksperimentator suhbat, kuzatish, savol-javob, baholash usullaridan foydalanadi.

Dasturda bolaning maktab ta'limiga tay-yorligini tekshirish uchun "metodikalar pa'l keti" tanlangan va 5-7 yoshli bolalarning yosh xususiyatlarini e'tiborga olgan holda har bir metodika uchun shkalali baholar sistemasi ishlab chiqilgan.

Har bir metodika 10 bo'limdan iborat.

Metodika nomi.

Metodika muashshfi.

3. Metodika nimani tekshirish uchun mo'ljallanganligi haqidagi izoh.

Tekshirish uchun izoh.

Ko'rsatma.

6. Tekshirishning borishi, faoliyat turi.

7. Tekshirish natijalari.

8. Tekshirishning shkalali baholari.

9. Yosh normalari.

10. Interpretatsiya.

Har bir metodika bo'yicha bolaning rivojlanish darajasini aniqlash sistemasi ishlab chiqilgan. Rivojlanishning quyidagi 5 ta turi ajratilgan.

daraja — eng yuqori

daraja — yuqori

daraja — o'rta ;(norma)

daraja — past

V daraja — juda past .

Past darajadagi bolalar maxsus qo'shimcha psixonevrologik teqshiruvdan o'tadilar. Psixologik tekshiruv natijalari bolalarning individual tekshirish kartasiga kiritiladi. Karta tekshirish bayonnomasi natijalari asosida to'ldiriladi.

Intellektual rivojlanishi:

Tafakkurning rivojlanish

xususiyatlari

Fikrlash jarayonining oqimi, faollik, ketma-ketlik, isbotlash, sabab-oqibat bog'lanishlari va funksional aloqalarini o'rnatish.

Fikrlash jarayonining tartibi, ketma-ketligining murakkablashuvi (analiz, sin-tez, o'xshashlik, taqqoslash, mavhumlik, umumlashtirish, tasnif).

Xulosa, yakun yasashdagи qiyinchiliklar;

Farqlash, kerakligini ajratish;

Belgilarni almashtirish.

Ko'rgazmali harakatli, ko'rgazmali obrazli, so'z mantiq tafakkur holatlari. Tafakkurning individual xususiyatlari.

Xotiraning rivojlanish xususiyatlari. Eslab qolish, qayta esga tushirish.

Eslab qolishda irodaning ahamiyati.

Ko'rish va eshitish xotirasining rivojlanishi.

Obrazli (ko'rish, eshitish, hid bilish, ta'm bilishga oid) xotira va so'z xrtirasining (o'y-fikrlarimiz mazmuniga oid) munosabati. Operativ (qisqa muddatli) eshituv xotira holati.

Fonematik eshituvning rivojlanishi

Bolaning ularga qaratib so'zlagan nutq-ni tushunishi, nutqiy aloqa. Analitiko — sintetik, fonematik faoliyatining holati.

Matematik tasavvurlarni rivojlantirish

Predmetlarni sanash malakasi. To'g'ri va teskari sanashni tartib bilan bajarish.

Predmetlar bilan oddiy vazifani bajarish. "Ko'p", "kam", "tenglik" tasavvurlari-ning mavjuddigi.

Hisiy-iroda sohasini rivojlantirish xususiyatlari

Faoliyatga xissiy yondoshish, harakat, hissiy holatda bo'lish. Individual hissiyot holati.

Irodaviy idora qilish xususiyatlari

Ma'lum faoliyatda irodaviy idora qilish va o'zini-o'zi boshqarish. Ishni oxiriga yetkazish, irodaviy bo'shligi, mehnatga layoqiti, tadbirkorlik, maktabda o'qishga qyziqish, xohishlarning mavjuddigi.

Bolaning maktab ta'limiga tayyorligi.

umumiy tasavvur. Malakalarining shakllanganligi

Predmet va atrof muhit haqidagi tasav-vurlar. Tushunchalar. Inson haqida tasavvurlar. Tasavvurlarni rasmda ifodalash malakai. Fazoda oriyentirovka qilish malakasi, qabul qilysh qobiliyatlarining holati.

## PSIXOLOGO-PEDAGOGIK TASHHIS DASTURI VA UNI TASHKIL QILISH

Psixologo-pedagogik diagnostikalash dasturi quyidagilardan iborat:

Bola haqidagi umumiylanamnez ma'lumotlarni o'rganish.

Bolaning muktab ta'limiga tayyorlikholatini tekshirish.

Bolaning muktab ta'limiga tayyorlikholati kartasini tuzish.

Bolaning muktabga tayyorlik individual xususiyatlari haqidagi xulosa.

Psixologo-pedagogik ko'rsatmalar.

I. Bola haqidagi umumiylanamnez ma'lumotlari.

Bolaning ismi, familiyasi, yashash joyi, yoshi, bola qatnayotgan muktabgacha tarbiya muassasasi ko'rsatiladi. Bola yashayotgan oilaning salomatligi va maishiy sharoiti, ro'zg'or axvoli belgilanadi. Bolaning oilasiga qisqacha tavsif beriladi.

II. Bolaning muktab ta'limiga tayyorlik xolati

Bolaning muktabga tayyorlik holati uning intellekti, nutqi, hissiy-iroda sohalarini tizimli ravishda tekshirish bilan aniklanadi. Bu sohalar o'ziga xos (tegashli) metodikaar orqali o'rganiladi. Ushbu metodikalar orqali quyidagilar tekshiriladi: 1) bolaning psixik rivojlanish darajasi; 2) bolada zarur ko'nikma va

malakalarning mavjudligi; 3) bolaning maktab ta’limiga bo’lgan munosabatining holati.

### **2.3§ Tajriba sinov.**

Tajriba sinov ishlari bo'yicha amalga oshirilgan tatqiqot tajriba-sinov mohiyati oily ta'lim tizimidagi mavzu shakllanish jarayonlarini amalga oshirishdan iborat qilib belgilandi.Pedagogik sinovni tashkil etish jarayonida yechiladigan vazifalar ko'lami quyidagilardan iborat qilib belgilandi.

- Tajriba-sinov mezonlarini yaratish;
- Tajriba-sinov mazmunini o'zida aks ettirgan materiallarni ishlab chiqish ;
- Tajriba-sinov io'tkazilgan guruhlarni aniqlash;
- Tajriba-sinov jarayonini tashkil qilish.

Tatqiqotda tajriba-sinov amalga oshiriladigan sub'ekt qilib, Jizzax shahar XTBga qarashli N10-sonli “Do'stlik” nomli maktabgacha ta'lim muassasasi belgilandi.Tajriba-sinov jarayoniga tayyorlov guruhi ularning baholash mezonlariga qarab yuqori, o'rta, past darajadagi guruhlarga ajratildi.Barcha guruh o'zaro teng vaziyatda va bir xil mazmunda tajriba-sinovdan o'tishdi.

Tajriba-sinov natijalariga 30 dan ortiq tarbiyalanuvchilar jalb etildi.

Tajriba-sinov metodlariga anketa, suhbatlashish, intervyu olish, tahlil va kuzatish, test olish kabi zamonaviy usullar qo'llanildi.I-bosqichda mavzu yuzasidan adabiyotlar to'pladim.Bu mavzularni maktab ta'limiga tayyorlash I.Asadovning “Bolangiz mакtabга тайярми?” kitobi M.Rasulova, M.Fayzullayevaning “Болаларни макtabга тайярлаш дастuri ” V.T.Loginova P.T.Samarinkovalarning “Maktabgacha pedagogika” sidan Yusupovaning “Maktabgacha tarbiya pedagogika” sidan foydalanildi.

II bosqichda bolalarni maktabga tayyorlash bog'cha, oila hamkorligining o'ziga xos xususiyatlari ustida ish olib bordim.Maktabgacha ta'lim muassasasining tayyorlov guruhida bolalarning umumiy, jismoniy va psixologik rivojlanish darajasini aniqlab chiqdim.Guruha "Uchinchi ming yillikning bolası" dasturi asosida ta'lim-tarbiya ishlari olib borildi.Tayyorlov guruhi tarbiyachisining ish rejali bilan tanishib chiqdim.MTM va maktab o'rtasidagi uzviylik murakkab tarkibiy tuzilishga ega ekanligi aniqlandi.Unda yetakchi yo'naliшlar ta'lim-tarbiya ishlaridagi izchillik hamda ularning tarkibiy qismlari ta'lim-tarbiyaviy ish mazmuni shakl va metodlaridagi izchillik shuninigdek bola tarbiyalashdagi pedagogik talablar va sharoit izchillagini farqlash mumkin.

MTM va maktabda amalga oshiriladigan ta'lim- tarbiyaviy ish mazmunini belgilovchi dasturlar aloqasi izchillik va ketma-ketlik asosini tashkil qiladi.

Bolalar bog'chasi va boshlang'ich sinflarning amaldagi dasturlarni qiyoslash o'rtasida ma'lum izchil ijobiy muvoffaqiyatli aloqa borligini ko'rsatadi.Shu bilan bir vaqtda bolalarni MTM da boshlang'ich boshlang'ich lug'at boyligini yanada oshirish nutqning ifodaliligi, mantiqiyligi ustidagi ish savom ettirildi.Bolalarni MTM da va maktab asosida o'qitish izchilligi asosini tashkil etishda yagona nazariy yondashuvlar, dasturlar mazmuni maktabgacha yoshdagи bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash imkoniyatlari hamda bolala bilimining pedagogic psixologik tuzulishi hisobga olindi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarining tayyorlov guruhlarida mashg'ulot va dars mazmuni dasturlashtirilgan aniq tashkiliy vaqt jihatdan cheklanganlik, pedagogning yetuk roli ilmiy asoslangan o'qitish metodi va usullaridan foydalanildi va shu singari umumiy xususiyatlari ta'lim shakllaridagi izchillik uchun zamin yaratdi.

III- bosqich.Olingen natijalar tahlil qilindi.Tayyorlov guruhi bolalarining maktab ta'limga tayyorlik darajasini aniqlashda maktabgacha yaosh bolalar ta'lim-tarbiyasiqo'yadigan muammo va talablarga amal qilindi.

Maktabgacha tarbiya muassasasining tayyorlov guruhi bolalarini maktab ta'limga tayyorgarlik darajasi aqliy ma'naviy yetuklik darajasi va maktab ta'limga pedagogik tayyorlik darajalari test metodikalar orqali tekshirildi.

### **So`rovnama natijalari**

Savollar	Bilim darajalari va javoblar					
	<b>Past</b>		<b>o`rta</b>		<b>yuqori</b>	
	old.	key.	old.	key.	old.	key.
Sen qachon nonushta qilasan-kechqurunmi, ertalabmi? Tushlikni ertalab qilasanmi, kunduzimi? Tushlik oldin buladimi yoki kechki ovqat?	36	88	54	100	84	100
Sen qayerda yashaysan? Uy manzilingni ayt( Qanday mamlakatda? Prezident kim ? Vatanimizning bayrogini, gerbini ko'rsat? va boshk.)						
Otang (onang) kim bulib ishlaydi?						
Rasm chizishni yaxshi kurasanmi? Bu qalamning (lentaning, rumolning rangi qanaqa?	34	65	54	66	87	100
Xozir yilning qaysi fasli- qishmi, baxormi, yozmi, kuzmi? Nega sen shunday deb	45	88	56	87	86	100

xisoblaysan?						
Nega qor qishda buladi, yozda emas?						
Xaydovchi (shifokor, o'qituvchi ) nima ish qiladi?	31	66	35	89	98	100
Maktabda qung'iroq, parta nima uchun kerak?	36	88	44	90	98	100
Uzingning ung kuzingni, chap qulog'ingni ( ung yoki chap qo'l bilan ) kursat. Kuz va qulog nima uchun kerak?	29	56	37	87	98	100
Qanday xayvonlarni bilasan?	49	87	75	100	100	100
Sen qanday kushlarni bilasan?47	47	88	56	98	93	100
Nima katta: sigirmi, echkimi? Kushmi yoki asalari? Nimani panjasি katta: kuchuknikimi, xuroznikimi?	56	85	58	90	94	100
Nima katta: 8mi, 5mi, 7mi, 9 dan 2 gacha sana.	46	82	57	89	92	100
Bilmasdan birovning narsasini sindirib kuysang nima kilish kerak?						
Uy telefonlaringning, onangning, otangning, buvingning ish joylaridagi telefonlarning rakamini eslab kur...						
Aga ota-onang ( kechkurun va dam olish kunlari) uyda yuk bulsa – kayerda bulishi mumkin?						

Sen ( katta dukonda, bozorda, xayvonot bogida, seni majburan olib ketganda, notanish kuchada kup kishilik avtobusda, metroda va boshk.) adashib kolsang, bunday xolatlarda nima kilgan bularding?					
Senga kuchada bezorilar duch keldi va tegajonlik kildi...					

### so`rovnama jadvali

Mazkur so`rovnomalar bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda ularning ma'naviy, aqliy, axloqiy, jismoniy yetukligini belgilovchi omil bo'lib xizmat qiladi. Bolalar nazariy va amaliy bilimlarga ega ekanligi mazkur so`rovnomada aks etgan. Ma'lum tadbirdaridan so`ng bolalarning nazariy va amaliy bilim darajalari keskin oshganligi jadvalda yorqin ifodasini topgan.

## XULOSA

Hozirgi sharoitda bolalarning maktabga tayyorgarlik darajalariga qo'yilayotgan jiddiy talablar bu borada zaruriy chora-tadbirlarni ishlab chiqish lozimligini taqazo etmoqda.

"O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'limto'g'risida Nizom" ga muofiq maktabgacha ta'limni bola uyda (ota-onalarning mustaqil ravishda ta'limtarbiya berishi orqali) yoki doimiy faoliyat ko'rsatadigan maktabgachata'lim muassasalariga jalb qilinmagan bolalar uchun maktabgacha ta'lim muassasalarida, maktablarda, mahallalarda tashkil etilgan maxsus guruhlar yoki markazlarda oladi. Bu yerda ular haftada 5kun shug'llanishadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasi bilan shug'llanuvchilar 6-7 yoshli bolalarning makteb ta'limiga tayyorgarlik darajasini aniqlashda asosiy shart hisoblangan maktabgacha bo'lgan hayot tarzi uning maktabda kechadigan kundalik faoliyatga o'tishida bir ko'prik vazifasini o'tashi hamda oila yoki bog'chadagi ta'lim-tarbiya sharoitlaridan umumiy o'rta ta'lim maktablarida beriladigan ta'lim-tarbiya muhitga silliq o'tishini ta'minlashi zarurligini ham hisobga olishlari lozim.

Maktabgacha yoshdagi bolaning makteb ta'limiga o'tishi hamisha uning hayoti, xulqi, qiziqishi va kundalik munosabatlarda anchagina jiddiy o'zgarishlarni yuzaga keltiradi. Shuning uchun maktabgacha yoshdagi bolani bog'chada yoki uydayoq makteb ta'limiga tayyorlash jarayonida uncha qiyin bo'limgan bilim, tushuncha, ko'nikma va malakalar bilan tanishtirish, o'z navbatida bolada kechadigan moslashuv davri jiddiy qiyinchiliklarsiz o'tishga yordam beradi.

Yetakchi mutaxassislarning fikricha “maktabga tayyorgarlik” tushunchasi bolani maktabga tayyorlashning jismoniy, shaxsiy, (ruhiy), aqliy va maxsus tayyorgarlik yo’nalaishlarini o’z ichiga oladi.

Jismoniy tayyorgarlik bolaning sog’lomligi, harakat ko’nikmalari sifati ko’rish motorikasi va qo’l mushaklarining o’zaro muofiq tarzda rivojlanishi bilan izohlanadi.

Shahsiy (ruhiy) tayyorgarlikda esa bolaning mактабгача та’лим muassasasida tarbiyalanganligiga ko’ra turlicha bo’lishi mumkinligi nazarda tutiladi. Bunda bolada sharoitga ko’ra umumiy o’rta ta’lim mактабларидаги та’лимтарбиya borasida tegishli tasavvur va tushunchalaar shakllangan bo’ladi. Ulardagi ana shu ruhiy tayyorgarlikni tarbiyachilar to’g’ri yo’nalishga sola bilishlari lozim.

Shuningdek, maxsus tayyorgarlik bolani ilk savodxonlikka o’rgatish va unda mактабвнинг 1- sinf o’quv dasturi materiallarini yetarli darajada egallah haqidagi tushunchani shakllantirishni nazarda tutadi. Shu o’rinda bir narsani ta’kidlash lozimki, bolaga po’qishni ayniqsa tez o’qish va yozishni o’rgatish eng asosiysi emas.

Eng asosiysi bolaning lug’at boyligini oshirish undan ongli faol foydalana olishni, tovushni tiniq eshitishni, aniq talaffuz qilishni, tovushlarni so’zlardan ajrata olishni ta’minalash va “Uchinchi ming yillikning bolasi” dasturiga kiritilgan ilk savodxonlik bo’yicha oddiy bilimlarni matematik tasavvurlarni egallahlariga erishishdir. Agar bola mактабгача tarbiya davrida har tomonlama rivojlangan bo’lsa, u mакtabda 1-sinf ta’limi jarayonida 2-3 oy davomida o’qish va yozish texnikasini qiyinchiliksiz egallab oladi. Maxsus tayyorgarlikning asosiy ko’rsatkichlari, bu faoliyatning tushinib yetilishi va erkinligi, ijodiy tasavvurning rivojlanganligi hisoblanadi. Ushbu sifatlar bolada mактабгача tarbiya davrining so’ngida ilk savodxonlik, matematik tasavvurlarni rivojlantirish, o’ziga xos

faoliyatning yangi o'yin konstruksiyalash(qurish-yasash) chizish ko'nikma va malakalarni egallash asosida shakllanadi.

Shuni unutmaslik kerakki, maktabga tayyorgarlik bolanining hissiy hayotga boy faoliyatini tashkil etishdan iborat.Bu jarayon qayerda uyda yoki qayerda kechishidan qat'iy nazar bolaning kelajakdagi rivojiga asos bo'ladigan, uning maktabgacha bolalik pallasidagi qiziqish va ehtiyojlarni qondiradigan yorqin, yanada unitilmas voqealari ishlari bilan boyitilishi kerak.

“Uchinchi ming yillikning bolasi” tayanch dasturida bolalarni har tomonlama rivojlantirish va maktabga tayyorlash uch yo'nalishdagi mashg'ulotlar asosida olib borilishi joroiy etilgan.Ushbu dasturdan foydalananilgan holda qisqa muddatli guruhrular maktab qoshida ochilgan tayyorlov, shanba, yakshanbalik va boshqa noan'anaviy guruhrular uchun mashg'ulotlar soni aniqlanadi hamda haftalik jadval tuziladi.Demak, farzandlarimiz oilada maktabga tayyor bo'lib kelishlari ham dasturimizda belgilangan asosiy vazifasidir.

Biz tatqiqotimiz natijasida quyidagi natijalarni berishni maqsadga muofiq deb bildik.

1. Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni ilk yoshdan boshlab maktab ta'limiga tayyorlab borishni;
2. Maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachisi va maktab boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash va maktab ta'limiga tayyorlashda “Uchinchi ming yillikning bolasi” tayanch dasturi va “Bolangiz maktabga tayyormi?” o'quv qo'llanmasi bilan mustaqil foydalana olishlari lozim.
3. Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda ularning

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI.**

1. I.Karimov «Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch». Toshkent 2008y
2. I.A.Karimov “O’zbekiston XXI asrga intilmoqda”. Toshkent, O’zbekiston, 1999y
3. I.A.Karimov ”Barkamol avlod - O’zbekiston taraqqiyotining poydevori ”.Toshkent, Sharq, 1997y
4. I.A.Karimov «Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir»- Toshkent 1995 y.
5. I.A.Karimov «Barkamol avlod orzusi» - Toshkent 1999 y.
6. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi - Toshkent 2008 y.
7. O`zbekiston Rsepublikasining «Ta'lim to`g`risidagi qonun» - Toshkent 1997 y.
8. Maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lif-tarbiyasiga qo'yiladigan davlat talablari.T, O'zPFITI, 2000. Tuzuvchi mualliflar:M.Rasulova, H.Abdurahmonova va boshqalar.
9. O`zbekiston Respublikasi maktabgacha tarbiya. Toshkent 1992 y.
10. Maktabgacha ta'lif jurnali. №1 -2000 y.
11. Kadrlar tayyorlash bo'yicha «Milliy dastur» - Toshkent 1997 y.
12. Maktabgacha tarbiya muassasasi to`g`risidagi nizom. - Toshkent 1995 y.
13. «Bolalar bog`chasida ta'lif-tarbiya dasturi» - Toshkent 1993 y.Tuzuvchi mualliflar:L.Mo'minova, M.Ayupova, S.Karimova.
14. Bolalarni rivojlantirish va maktabga tayyorlash tayanch-sinov dasturi. Toshkent - 1998 y.
15. Sh.Shodmonova, «Maktabgacha ta'lif pedagogikasi» Toshkent 2003
16. "Uchinchi ming yillikning bolasi" tayanch dasturi.2002y
17. «Oila pedagogikasi» O.Hasanboyeva, Aloqachi nashryoti, 2007y
18. «Maktabgacha tarbiya pedagogikasi » Toshkent, Ilm-ziyo, 2006y

19. Pedagogika.R.Mavlonova, O.To'rayeva, K. Xoliqberdiyev. Toshkent, O'qituvchi nashriyoti,2006y
20. Pedagogika tarixi. A. Zunnunov, B.To'xliyev, X.Ma'sudov.Toshkent, Sharq nashryoti, 2002y
21. Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi.Nishonova O. Toshkent
22. V.G.Nichaeva. Maktabgacha yoshdagi bolalarni mehnatda tarbiyalash - Toshkent. O`qituvchi -1995 y.
23. N.M.Aksarina . «Go`dak bolalar tarbiyasi» - Toshkent «Meditrina» -1983 y.
24. G.A. Kalyujin., M.P.Deryugina. «Yo`rgakdan maktabgacha» -Toshkent «O`qituvchi» - 1988 y
25. T. Usmonxo`jaeva. F.Xo`jaev. Ming bir o`yin -Toshkent Ibn Sino nashriyoti- 1990
26. O`Otavalieva. Bola tarbiyasida bog`cha va oila hamkorligi. O`qituvchi 1994 y.
27. V.G.Negacheva, T.A.Markova. Bolalar bog`chasida ahloqiy tarbiya. O`qituvchi - 1990
28. V.G. Lomkova., P.G.Samorunova. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. O`qituvchi -1991-1992 yy.
29. P.Yusupova. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. O`qituvchi -1993 y.
30. Bolalarni rivojlantirish va mакtabga tayyorlash tayanch-sinov dasturi. Toshkent - 1998 y.
31. «Maktabgacha ta'lim» jurnali. 7-8(61-62)-son, 2000y iyul-avgust.
32. «Maktabgacha ta'lim» jurnali. 4 (58)-son 2000y, avgust.
33. «Maktabgacha ta'lim» jurnali. 6 (166)-son, 2009y, iyun.
34. «Maktabgacha ta'lim» jurnali. 11 (160)-son, 2008y, noyabr.

# **ILOVALAR**

**BOLANING SHAXSIY – PSIXOLOGIK VA AKLIY**  
**RIVOJLANGANLIGINI TASHXISLASH**

1. Tashxislash suxbati savollari
2. Familmyangni, ismingni, otangni ismini ayt.
3. Ota – onangning familiyasi, ismi, otasining ismini ayt.
4. Sen kizmi yoki ugil ? Katta bulsang kim bulasan: xolami, togami?
5. Sening akang (opang) bormi, kim katta ?
6. Yoshing nechada ? Bir yildan keyin nechaga kirasan, iki yildan keyin- chi?
7. Xozir ertalabmi yoki kechkurun(kunduzimi yoki ertalabmi)?
8. Sen kachon nonushta kilasan-kechkurunmi, ertalabmi? Tushlikni ertalab kilasanmi, kunduzimi? Tushlik oldin buladimi yoki kechki ovkat?
9. Sen kayerda yashaysan? Uy manzilingni ayt( Kanday mamlakatda? Prezident kim ? Vatanimizning bayrogini, gerbini kursat? va boshk.)
10. Otang (onang) kim bulib ishlaydi?
11. Rasm chizishni yaxshi kurasanmi? Bu kalamning (lentaning, rumolning rangi kanaka?)
12. Xozir yilning kaysi fasli- kishmi, baxormi, yozmi, kuzmi? Nega sen shunday deb xisoblaysan?
13. Nega kor kishda buladi, yozda yemas?
14. Xaydovchi (shifokor, ukituvchi ) nima ish kiladi?
15. Maktabda kungirok, parta nima uchun kerak?
16. Uzingning ung kuzingni, chap kulogingni ( ung yoki chap kul bilan ) kursat. Kuz va kulok nima uchun kerak?
17. Kanday xayvonlarni bilasan?
18. Sen kanday kushlarni bilasan?

19. Nima katta: sigirmi, echkimi? Kushmi yoki asalari? Nimani panjası katta: kuchuknikimi, xuroznikimi?
20. Nima katta: 8mi, 5mi, 7mi, 3 ? 3dan 6 gacha, 9 dan 2 gacha sana.
21. Bilmasdan birovning narsasini sindirib kuysang nima kilish kerak?
22. Uy telefonlaringning, onangning, otangning, buvingning ish joylaridagi telefonlarning rakamini eslab kur...
23. Aga ota-onang ( kechkurun va dam olish kunlari) uyda yuk bulsa – kayerda bulishi mumkin?
24. Sen ( katta dukonda, bozorda, xayvonot bogida, seni majburan olib ketganda, notanish kuchada kup kishilik avtobusda, metroda va boshk.) adashib kolsang, bunday xolatlarda nima kilgan bularding?
25. Senga kuchada bezorilar duch keldi va tegajonlik kildi...

# **BOLANING MAKTABDA O'QISHGA MOTIVATSION TAYYRLIGINI**

## **TEKSHIRISH**

(Diagnostik suhbat)

1. Sening isming nima?
2. O'zingning familiyangni ayt?
3. Sening yoshing nechada?
4. Voy, sen katta bola ekansan!
5. Demak, sen yaqinda matabga borasan.
6. Suhbatning mazmuni:
7. Sen o'qishni xohlaysanmi?
8. Nega (xohlaysan, xohdamaysan)?
9. Sen qayerda o'qishni istaysan?
10. Sen matabga qachon borasan?
11. Sen matabga qanday tayyorgarlik ko'rayapsan? Aytib ber.
12. Seni kim o'qitadi?
13. O'qituvchi seni nimalarga o'rgatadi?
14. Sen o'quvchi bo'lganidan nima bilan shug'ullanasan?
15. Sening o'bdipingga uyda kim yordam beradi?
16. Maktabda sen kimga yordam berasan?
17. Seni maqtashsa, senga yoqadimi?
18. Makgabga borganingda seni kim maqgaydi?
19. Seni maqtashlari uchun sen nima k'ilishing lozim?
20. Sen qanday o'qishni xohlaysan?
21. Maktabda sen o'zingni qanday tutasan? So'zlab ber.

## **METODIKA**

Ixtiyorsiz ko'ruv xotirasini tekshirish.

Qo'llaiilishi: Metodika ixtiyorsiz ko'ruv xotirasining kengligini aniqlashga yordam beradi.

Jihoz: 10 ta rasmdan iborat to'plam:

1. Baliq.
2. Chelak.
3. Qo'g'irchoq.
4. Bolg'acha.
5. Kitob.
6. .Chana.
7. Archa.
8. Piyola.
9. Soat.
- 10..Televizor.

Tekshiriluvchiga ko'rsatma: "Men senga rasmlarni ko'rsataman, sen ularni nomla".

Tekshirishning borishi: Rasmlar birma-bir ko'rsatilib, bola oldiga qo'yiladi. Har bir rasmga 1 sekund vaqt beriladi. Rasmlarning barchasi nomlangandan so'ng eksperimentator rasmlarni olib qo'yadi. Tekshiriluvchi ko'rganlarini aytib berishi lozim. Tartib katta ahamiyatga ega emas.

Eslatma: Har bir rasmni to'g'ri eslab aytishga 1 ball beriladi.

Shkala baholari:

I daraja:10 ta to'g'ri nomlash

IIdaraja: 9-8 ta

daraja:7-6 ta

daraja: 5-4 ta

V daraja: 3 va quyi

## **Maktab ta'limiga tayyorlash**

Maktabgacha ta'lim muassasalarining tayyorlov guruhlarini **Maktab ta'limiga tayyorlash** uchun dastur

### **Tuzuvchilar:**

“Maktabgacha ta'lim nazariyasi va metodikasi” kafedrasi mudiri v/b, katta o'qituvchisi G.Qo'shoqova.

“Maktabhacha ta'lim va bolalar sporti” yo'nalishi talabasi M.Tursunmatova.

Kirish.

Barkamol avlodning har tomonlama kamol toptirilishining asosi bola hayotining dastlabki yillarda, maktabgacha tarbiya yoshida qo'yiladi. Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash hozirda oldimizda turgan eng ustvor vazifalardan sanaladi.

Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda ularning jismoniy, aqliy, ma'naviy, psixologik tayyorligi e'tiborga olinadi. Maktab yoshiga yetgan bolalalarning jismoniy jihatdan rivojlanganlik, nutq va tafakkurning rivojlanganlik darajasi maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish va maktabga tayyorlash jarayoni oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarning bajarilishi maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga qo'yiladigan qavlat talablari orqali nazorat qilinadi.

Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda quyidagi metodikalarning ahamiyati beqiyos. Ya'ni Til va nutq

Tayyorlov guruhlarida nutq o'stirish mashg'ulotlari haftada 2 marta, oyda 8 marta, yilda 72 marta olib borilishi maqsadga muofiqdir.

Nutq o'stirish mashg'ulotlarida tayyorlov guruhi bolalarining

- lug'at faolligi boyitish;
- tovush madaniyatini shakllantirish;
- ravon nutqini hikoya qilib boyitish;
- ijodiy qilishga o'rgatish kabi mashg'ulotlar olib boriladi.